

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

BO‘RONOV SUHROB MUHAMMADI O‘G‘LI

**MARKAZIY OSIYO MINTAQAVIY XAVFSIZLIK
TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA “TOLIBON” OMILI**

**23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining
siyosiy muammolari**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UO‘K: 327.39(581):28
КБК: 66.4: 86.38 (5Afg)
Б - 99

Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата докторский диссертации (DSc)
по политическим наукам**

Content of the Doctoral Dissertation Abstract on Political Sciences

Bo‘ronov Suhrob Muhammadi o‘g‘li

Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik transformatsiyasi sharoitida “Tolibon”
omili

Буранов Сухроб Махаммади угли

Фактор «Талибан» в условиях трансформации региональной безопасности в
Центральной Азии

Buranov Suhrob Muhammadi ugli

The “Taliban” factor in the context of regional security transformation in Central
Asia

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

BO‘RONOV SUHROB MUHAMMADI O‘G‘LI

**MARKAZIY OSIYO MINTAQAVIY XAVFSIZLIK
TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA “TOLIBON” OMILI**

**23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining
siyosiy muammolari**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Ss111 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuos.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Mannonov Abdurahim Mutalovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Haydarov Abdusamad Axatovich**
siyosiy fanlari doktori, professor

Muhammadsidiqov Muhammadolim
Muhammadroziq o'g'li
siyosiy fanlari doktori, professor

Jo'rayev Qodir Asadovich
siyosiy fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__»_____soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: tsuos@info.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21. faks: (998971) 233-52-24

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» _____dagi __-raqamli reyestr bayonnomasi).

D.B. Sayfullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

O.I. Alimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

E.S. Sultonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda o‘zaro ishonchning chuqur tanazzulga yuz tutishi va “bloklarga mansublik” yondashuvining qayta yuzaga chiqishi natijasida global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga nisbatan jiddiy tahdidlar tobora kuchayib, geosiyosiy jarayonlar va jahon hamjamiyatining tartib-qoidalariga asoslangan tizim shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Butun dunyodagi vaziyatning jadal tarzda o‘zgarishi sharoitida yirik va mintaqaviy kuch markazlarning Markaziy Osiyo mintaqasiga bo‘lgan e‘tibori va qiziqishi mintaqa davlatlarining hamkorlikni mustahkamlash borasidagi ijobiy sa’y-harakatlari sababli yanada ortib bormoqda. Markaziy Osiyo mintaqasining barqarorligi va xavfsizligiga ta’sir etuvchi noodatiy omillarni diplomatik muloqot, ahil qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch, tenglik va hurmat tamoyillari asosida hal etish vazifasi kun tartibiga chiqmoqda. Shu boisdan Afg‘onistondagi bugungi vaziyatning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta’siri va uning istiqboli masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon afg‘onshunosligi “tolibonshunoslik”ka oid ilmiy izlanishlar bo‘yicha yangicha konseptual yondashuvlarni ilgari surishga katta zarurat sezmoqda. Xususan, amaldagi Afg‘oniston hukumatining davlat boshqaruv shakli, diniy-siyosiy qarashlari, qo‘shni davlatlar bilan muloqoti va uning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi masalalari xalqaro ilmiy-tahlil markazlarining diqqat-e‘tiborini o‘ziga tortmoqda. Ayniqsa, bu “Tolibon” rahbarlik qilayotgan Afg‘oniston hukumati va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida vujudga kelgan va davom etayotgan murakkab masalalarni hal qilishning an’anaviy tuyulgan yondashuv va uslublari o‘z samarasini ko‘rsata olmayotganida o‘z aksini topmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ushbu holat “Tolibon” faoliyati istiqbolining Markaziy Osiyo mintaqasiga ta’sirini aniqlash va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashning chuqur metodologik-institutsional mexanizmlarini ishlab chiqish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Afg‘onistonda tinchlik, barqarorlik va kafolatli xavfsizlikning ta’minlanishi butun Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan O‘zbekiston xavfsizligi va mustahkam barqarorligining asosiy shartlaridir biridir. O‘zbekiston yaqin qo‘shni davlat sifatida Afg‘oniston xavfsizligini o‘z xavfsizligi deb hisoblaydi va ushbu o‘lkada uzoq muddatli tinchlik va barqarorlik o‘rnatilishining qat’iy tarafdoridir: “Afg‘oniston xavfsizligi – bu O‘zbekiston xavfsizligi, butun bepoyon Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi barqarorligi hamda taraqqiyotning garovidir”¹.

Ushbu dissertatsiya 2025-yil 25-fevraldagi O‘RQ-1037-son “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi O‘RQ-1037-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”,

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.363-369.

2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi PF-5400-son “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4892-son “Afg‘oniston Islom Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi va unga “Tolibon” omilining ta’siri masalalari bir qator nufuzli oliy ta’lim muassasalari, yetakchi tadqiqot va aql markazlari, jumladan, Garvard, Stenford, Kaliforniya, Prinston, Chikago, Boston va Indiana universitetlari, Rend Korporatsiyasi, Tashqi siyosat kengashi, Urushni tadqiq etish instituti, Nebraska universiteti qoshidagi Afg‘oniston va mintaqaviy tadqiqotlar markazi, Tashqi siyosiy tadqiqotlar instituti, Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi (AQSh), Oksford, Kembrij va Glasgov universitetlari, London qirollik maktabi (Buyuk Britaniya), Stokgolm xalqaro tinchlik tadqiqotlari instituti (Shvetsiya), Xalqaro aloqalar instituti (Norvegiya), Janubiy Osiyo demokratik forumi (Belgiya), Global aloqalar instituti (Shvetsariya), Sinxua universitetining Janubiy Osiyo tadqiqotlari instituti, Shanxay xalqaro tadqiqotlar universiteti (Xitoy), Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Zamonaviy Afg‘onistonni o‘rganish markazi, Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti, “Valday” xalqaro munozara klubi (Rossiya), Mojarolar va Xavfsizlik tadqiqotlari instituti, Qaydi A‘zam universiteti, Panjob universitetidagi Tinchlik va xavfsizlik tadqiqotlari markazi, Tadqiqotlar va xavfsizlik izlanishlari markazi (Pokiston), Imom Husayn universiteti, Islom ozod universiteti, Siyosiy va xalqaro tadqiqotlar instituti (Eron), Dehli siyosiy guruhi, Xalqaro ishlar bo‘yicha Hindiston kengashi, Tinchlik va nizo tadqiqotlari instituti (Hindiston), Strategik tadqiqotlar markazi, Afg‘oniston tadqiqot va siyosiy o‘rganishlar markazi, Afg‘oniston mintaqaviy tadqiqotlar markazi, Nizo va tinchlik tadqiqotlari markazi, Milliy statistika va axborot boshqarmasi (Afg‘oniston), Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Markaziy Osiyo xalqaro instituti (O‘zbekiston), Strategik tadqiqotlar instituti, Osiyo tadqiqotlari instituti (Qozog‘iston), Strategik tadqiqotlar markazi, Geosiyosiy tadqiqotlar markazi, Tojikiston Fanlar akademiyasi huzuridagi Iqtisodiy va demografiya instituti

(Tojikiston), Strategik tadqiqotlar milliy instituti, Qirg'iziston tinchlikni tadqiq etish markazi (Qirg'iziston), Strategik tadqiqotlar markazi (Turkmaniston)da dolzarb ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik transformatsiyasiga "Tolibon" omilining ta'siriga doir tadqiqotlar natijasida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: "Tolibon" omili Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga terrorizm, diniy ekstremizm, narkotik moddalar savdosi, pushtunizm, suv va qochoqlar omili singari xatarlar orqali ta'sir etishi bilan bog'liq masalalar tizimli tarzda tadqiq qilingan (Oksford va Glasgov universitetlari, Buyuk Britaniya); "Tolibon" hukumatining diniy boshqaruv siyosati Saudiya Arabistonining diniy siyosiy modeliga o'xshab ketishi, biroq mafkuraviy nuqtayi nazardan undan farq qilishi va u o'ziga xos "Tolibonizm" nazariyasiga asoslanishi dalillangan (Indian universiteti, Rend korporatsiyasi va Tashqi siyosat kengashi, AQSh), "Tolibon" omili bilan bog'liq Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligini ta'minlashda mintaqa davlatlarining muvofiqlashtirilgan yagona yondashuvlarini ishlab chiqish zaruriyati isbotlangan (Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (O'zbekiston), Osiyo tadqiqotlari instituti, Qozog'iston); "Tolibon" rahbarligidagi bugungi Afg'oniston hududidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavfsizlikka nisbatan ehtimoliy tahdidlarni oldini olishda Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti va Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi ko'p tomonlama institutsional tuzilmalarning imkoniyatlaridan foydalanish lozimligi asoslantirilgan (Zamonaviy Afg'onistonni o'rganish markazi, Rossiya).

O'zbekiston tashqi siyosatining strategik yo'nalishlaridan kelib chiqib, "Tolibon" omilining Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta'sirini chuqur ilmiy-amaliy baholash, Afg'onistonda mustahkam tinchlik va barqarorlikka erishish uchun ko'maklashish, mintaqa davlatlari chegara xavfsizligiga tahdid tug'diruvchi turli tahlikalarni preventiv xavfsizlik chora-tadbirlari asosida hal etish, strategik ahamiyatga molik hisoblangan Transafg'on transport loyihalari faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish va ushbu loyihalarni ro'yobga chiqarish singari masalalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar safi tobora kengayib bormoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Afg'onistonni boshqarayotgan "Tolibon" hukumatining kelajagi, uning faoliyatiga nisbatan yirik aktorlar va chegaradosh mintaqa davlatlarining yondashuvlari, shuningdek, "Tolibon" diniy-mafkuraviy qarashlarining mintaqaga ta'siri bilan bog'liq masalalar nazariy va amaliy jihatdan soha olimlari va tahlilchilarining qiziqishlariga sabab bo'lmoqda.

Shu boisdan, tadqiqot doirasida foydalanilgan adabiyotlar beshta yirik guruhlariga ajratib olindi².

Birinchi guruh afg'onistonlik (shu jumladan, muhojirdagi) olimlar, siyosatchilar, diplomat va ekspertlarning ilmiy mulohazalari aks etgan adabiyotlar, xususan, dariy va pushtu tillaridagi materiallardan keltirilgan tadqiqotlarni o'z ichiga qamrab oladi. Jumladan, Zalmay Xalilzod, Hasan Kokar, Mir G'ulom Muhammad G'ubor, Muhammad Ali, Ne'matulloh Nujumiy, Bashir Ahmad

² Zikr etilgan olimlarning tadqiqot ishlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

Ansoriy, Nabi Misdoq, Ahmad Idris Rahmoniy, Nazif Shahroniy, Muhammad Atoiy, Muhammad Dovud Qayumiy, Umar Nissor, Habibullo Ko‘hmand, Exlos Tamim singari mutaxassislar Afg‘oniston tarixidan bugungi kuniga qadar bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘li, “Tolibon” harakatining vujudga kelishi, uning diniy qarashlari hamda tashqi kuchlarning “Tolibon”ga ta’siri masalalari atroflicha o‘rganilgan.

Ikkinchi guruhdan pokistonlik diplomatlar, olimlar va yozuvchilarning ilmiy tadqiqotlari o‘rin olgan. Masalan, Iftikor Murshid, Ahmed Rashid, Kamol Matinuddin, Navid Elahi, Hasan Abbos, Said Salim Shahzod, Farhat Toj va Azmat Hayot Xon tomonidan yozilgan asarlar va tadqiqotlar nafaqat “Tolibon” harakati va uning paydo bo‘lish sabablari haqida yaxlit tasavvur qilish imkonini beradi, balki Pokistonning ushbu jarayonlardagi ta’siri va roli, shuningdek, Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi nizoli masalalar haqida juda muhim va qiziqarli ma’lumotlarni taqdim etadi.

Uchinchi guruhni G‘arb davlatlarining olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tashkil etadi. Zbignev Bjezinskiy, Robert Geys, Luis Dyupri, Maykl Griffin, Mark Silinskiy, Uilyam Meyli, Stiven Tanner, Jill Dorrnsoro, Olivyer Rua, Piter Marsden, Barnet Rubin, Tomas Barfild, Stiv Koll, Tomas Jonson, Robert Stivens, Kreyg Uitlok, Samuel Hantington, Jan-Charles Brisard, Guilyam Daskui, Aleks Strik Linsxoten, Feliks Kuen Robert Kryus, Volter Perri, Devid Kassing, Larri Gudson kabi olimlar, diplomat va soha mutaxassislari yozgan kitoblar va ilmiy maqolalar “Tolibon” harakatining paydo bo‘lish ildizlari, uning diniy, etnik va radikal mafkuraviy qarashlarini mohirona ifoda etgani bilan afg‘onshunoslar uchun tom ma’noda katta ahamiyatga ega.

To‘rtinchi guruh. Markaziy osiyolik olimlar ham “Tolibon” harakatini ilmiy jihatdan o‘rganish uchun turkum maqolalar, tahliliy hisobotlar, dissertatsiyalar va boshqa turdagi tadqiqot ishlarini olib borishgan va hozirda ham bu jarayon davom etib kelmoqda. Jumladan, A.Smagulov, S.Akimbekov, A.Knyazev, U.Saydaliyev, K.Abdullayev, R.Nuriddinov, K.Iskandarov, S.Mirzoyev, N.Nazirov, Sh.Farzonayi va boshqa shu singari olimlar o‘z ilmiy ishlarida Afg‘onistondagi vaziyat, jumladan, “Tolibon” harakatining boshqaruvi va uning XX asrning 90-yillaridagi siyosatining Markaziy Osiyo xavfsizligiga ta’siri bo‘yicha muhim ma’lumotlarni keltirishgan. Shu bilan birgalikda, Sh.Rizoyon va M.G‘iyosov muallifligida nashr etilgan “Afg‘oniston “Tolibon” qaytishidan oldin va keyin” nomli monografiyada tinchlik jarayonlari (2015-2021), “Tolibon” harakatining hokimiyatga qaytishi va shundan keyingi Markaziy Osiyo davlatlarining Afg‘oniston bo‘yicha tashqi siyosati masalalari tahlil qilingan. A.Haydarov, R.Alimov, S.Safoyev, I.Boboqulov, N.To‘laganova, N.Kasimova, P.Makkamboev, Sh.Akmalov, Sh.G‘oyibnazarov, Sh.Yovqochev, M.Rahimov, D.Sayfullayev, O.Sirojov, R.Rashidov, A.Umarov, R.Mahmudov, S.Ubaydullayeva va boshqa shu singari o‘zbekistonlik olimlar tomonidan yozilgan dissertatsiyalar, monografiyalar, maqolalar va boshqa turdagi ilmiy izlanishlarda mustaqil Markaziy Osiyo mintaqasidagi beqarorlik, Afg‘onistondagi notinch vaziyatning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta’siri va bu jarayonlarda tashqi kuchlar hamda “Tolibon” omili haqida e’tiborga molik ilmiy qarashlar bayon qilingan.

Beshinchi guruhdan rossiyalik olimlarning ilmiy tadqiqotlari o‘rin olgan. V.Belokreniskiy va R.Sikoyev tadqiqotlarida 1996-2001-yillardagi “Tolibon” hokimiyatining o‘rnatilishi, buning sabablari va “toliblar”ning diniy-siyosiy portreti ochib berilsa, Y.Panichkin, V.Plastun va V.Andrianov asarlari “Tolibon” harakati va uning mintaqa xavfsizligiga ta’siri haqida kerakli ma’lumotlarni aniqlashga xizmat qiladi. V.Masson, V.Romodina, A.Snesarev, I.Reysner, Y.Gankovskiy, M.Arunova, V.Korgun, M.Konorovskiy, G.Yejov, P.Kirpenko, V.Boyko va boshqa shu kabi taniqli afg‘onshunos olimlarning asarlari davriy nuqtayi nazardan aynan “Tolibon” harakatini bevosita tadqiq qilishga bag‘ishlanmagan bo‘lsa ham, unda keltirilgan afg‘on xalqlari va Afg‘oniston tarixiga oid muhim ma’lumotlar “Tolibon” kelib chiqishining diniy, etnik, mafkuraviy va boshqa jihatlari xususida tarixiy yondashuvlar asosida baho berishga yordam beradi. A.Manachinskiy, M.Kicha va A.Lavrov singari mutaxassislar esa o‘z tadqiqotlarida Afg‘oniston tarixi silsilasida “Tolibon”ning tutgan o‘rni va roli, uning ortida turib qo‘llab-quvvatlagan kuch markazlari hamda ushbu harakat rahbarligidagi hukumatning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta’siri masalalariga qisman e’tiborini qaratishgan.

Biroq, o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili shundan dalolat bermoqdaki, yurtimiz olimlarining siyosiy fanlar doirasidagi ilmiy ishlarida “Tolibon” omilining Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta’sirini tadqiq etishga oid masalalar kompleks tarzda va yetarlicha tizimli tadqiq etilmagan. Shu nuqtayi nazardan, “Tolibon” va uning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta’siri bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar safini kengaytirish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasidan o‘rin olgan “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘zaro bog‘liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqboli (O‘zbekistonning tashabbuslari asosida)” amaliy tashabbuskor loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: “Tolibon” omilining Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta’sirini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Tolibon” harakati paydo bo‘lishining ichki sabablarini o‘rganish;

“Tolibon” harakatining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan tashqi kuchlar omilini chuqur tahlil qilish;

“Tolibon” omilini tadqiq etishning nazariy-konseptual asoslarini ochib berish;

1991-2001-yillarda Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga tahdidlarni tadqiq etish;

“Afg‘oniston Islom Amirligi” (1996-2001) faoliyatining Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi va barqarorligiga ta’sirini tahlil etish;

O‘zbekistonning Afg‘onistonda tinchlik va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan tashabbuslari (1993-2016-yillar) ahamiyatini ochib berish;

AQShning “Tolibon” bilan bog‘liq strategik yondashuvlarini aniqlash;

Pokiston, Eron va Hindistonning Afgʻonistondagi manfaatlarida “Tolibon” omilining oʻrnini tahliliy baholash;

Xitoy va Rossiyaning “Tolibon” omili bilan bogʻliq yondashuvlarini ochib berish;

Arab davlatlarining “Tolibon 2.0” hukumati bilan hamkorligining oʻziga xos jihatlarini yoritib berish;

Markaziy Osiyo davlatlarining “Tolibon 2.0” hukumatiga nisbatan tashqi siyosiy yondashuvlarini tadqiq etish;

“Tolibon” omilining Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga taʼsir etuvchi ehtimoliy tahlikalarini aniqlash;

Oʻzbekiston mintaqaviy xavfsizlik strategiyasida “Tolibon” omili bilan bogʻliq muammolarni tadqiq etish hamda shu yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Afgʻonistonda “Tolibon 2.0” hokimiyati oʻrnatilishi bilan bogʻliq Markaziy Osiyoda vujudga kelgan mintaqaviy xavfsizlik transformatsiyasi sharoiti belgilangan.

Tadqiqotning predmetini “Tolibon” harakatining paydo boʻlishi va rivojlanish sabablari, turli kuch markazlarining “Tolibon” boshqaruviga qaratilgan manfaatlarini qiyosiy tahlili, “Tolibon 2.0” hukumatining shakllanishi va uning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligining harbiy-siyosiy, suv-energetika, ekologik, savdo-iqtisodiy va madaniy-diniy jihatlariga, jumladan, Oʻzbekistonning mintaqaviy strategiyasiga taʼsiri bilan bogʻliq masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, muammoviy-xronologik, qiyoslash, tizimlashtirish, tuzilmaviy-funksional, institutsional, kuzatish, SWOT, kontent, event tahlil va prognozlashtirish usullaridan hamda tarixiy-tanqidiy, sivilizatsion, instrumentalistik, biheviyalistik va fanlararo yondashuv kabi metodologik yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Afgʻonistonda “Tolibon” harakatining paydo boʻlish va rivojlanish evolyutsiyasi, uning diniy-gʻoyaviy qarashlari va maslakhatlari tashqi tomondan uzoq yillar davomida shakllangan va afgʻon jamiyatiga moslashtirishga qaratilgan deobandiylik, vahhobiylik, “Musulmon birodarlari” kabi mafkuraviy taʼlimotlar bilan toʻldirilgani va pushtunlar jamoasi “Tolibon” harakatining etnik negizini tashkil etishi etno-diniy sinkretizm fenomeni asosida hamda bunday qarashlarning transformatsiyaga uchrayotgani Neotolibonizm paradigmasiga koʻra asoslab berilgan;

Markaziy Osiyo, Koʻrfaz mintaqasi va Janubiy Osiyo mintaqalarini Afgʻoniston orqali oʻzaro bogʻlash maqsadlarini ifoda etuvchi muqobil transport-tranzit yoʻlaklarini ishga tushirish, Afgʻoniston oʻlkasidagi ijtimoiy-iqtisodiy inqirozni hal etishga koʻmaklashish, ushbu mamlakatni mintaqaviy jarayonlarga keng jalb etishga qaratilgan transport-logistika, energetika va yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish mintaqalararo oʻzaro bogʻliqlikning yangi yoʻnalishi sifatida ishlab chiqilgan “Uch mintaqa yoyi” konsepsiyasiga koʻra isbotlangan;

Shanxay hamkorlik tashkilotining Afgʻonistonga qoʻshni va daxldor mamlakatlarning barchasini qamrab olgan mintaqadagi yagona va noyob platforma

ekanligi, Afg'onistondagi vaziyat tashqi yirik kuchlar tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan tazyiq ko'rsatish vositasi sifatida qo'llanilishini bartaraf etish va mintaqalararo xavfsizlik tizimini mustahkamlash maqsadida Shanxay hamkorlik tashkiloti huzurida Xavfsizlik qo'mitasini tashkil etish taklifi asoslab berilgan;

Markaziy Osiyo davlatlarining "Tolibon" rahbarlik qilayotgan Afg'oniston Muvaqqat hukumatiga nisbatan yagona va umumiy yondashuvini ishlab chiqish, Markaziy Osiyo va Afg'oniston o'rtasida yuzaga kelayotgan transchegaraviy suv resurslaridan oqilona va mintaqa davlatlarining umumiy manfaatlaridan kelib chiqib birgalikda foydalanish, terrorizm, diniy ekstremizm va etnik separatizm hamda narkotik moddalar savdosi kabi nizoli masalalarni siyosiy muzokaralar orqali muhokama qilish va hal qilishga ko'mak beruvchi mexanizm sifatida tashqi ishlar vazirlari darajasida "CA+AF" (Markaziy Osiyo va Afg'oniston) maslahat uchrashuvini tashkil etish taklifi dalillangan;

Afg'oniston Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasining jo'g'rofiy, etno-tarixiy, diniy va geosiyosiy omillarga ko'ra muhim tarkibiy qismi ekanligi, O'zbekistonning Afg'onistonda mustahkam tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan faol tashqi siyosiy yondashuvi hamda "Tolibon" omilining mintaqaviy xavfsizlik tizimiga o'rta muddatli istiqbolda ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda siyosiy-diplomatik, xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, shartnomaviy-huquqiy va madaniy-gumanitar chora-tadbirlar mexanizmlarini nazarda tutuvchi "O'zbekistonning Afg'oniston bo'yicha 2025-2035-yillarga mo'ljallangan strategiyasi"ni ishlab chiqish taklifi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Tolibon" harakatining kelib chiqishi va rivojlanishi sabablari, uning diniy-mafkuraviy va siyosiy qarashlarini aks ettiruvchi xatti-harakatlari hamda ularning Markaziy Osiyoda kechayotgan geosiyosiy jarayonlar va xavfsizlik holatiga ta'sir qilish omillarini tadqiq etishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan "Qora oqqush" va "Tolibonizm" kabi nazariy yondashuvlar aniqlangan;

Afg'oniston va Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va kafolatli xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shadigan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan;

Afg'onistondagi strategik noaniq vaziyatga, jumladan, "Tolibon" faoliyatiga nisbatan O'zbekistonning tashqi siyosiy yondashuvlarini yanada izchil, samarali va preventiv bo'lishiga xizmat qiladigan "O'zbekistonning Afg'oniston bo'yicha 2025-2035-yillarga mo'ljallangan strategiya" namunaviy loyihasi tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. unda xalqaro munosabatlar fanida e'tirof etilgan yondashuv va usullar qo'llangani, 400 ga yaqin ilmiy-nazariy adabiyotlar va manbalardan foydalanilgani, O'zbekiston va Afg'onistondagi tegishli idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari, dariy va pushtu tillaridagi birlamchi manbalarga asoslangani hamda konseptual asosga ega xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda tadqiqot jarayonida olingan natijalarning vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlangani bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, jumladan, Markaziy Osiyo va Afg'onistonda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hamda tadqiq etilayotgan muammoga oid metodologik

yondashuvlar va nazariy xulosalarni takomillashtirish jarayonida foydali bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* esa ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Afg'oniston mavzusi bilan shug'ullanuvchi tahliliy markazlar va boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan ilmiy izlanishlar, axborot-tahliliy va dasturiy hujjatlarni tayyorlashda, Oliy ta'lim muassasalari uchun ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib borishda muhim manba sifatida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik transformatsiyasi sharoitida “Tolibon” omili” mavzusi bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

Afg'oniston Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasining jo'g'rofiy, etno-tarixiy, diniy va geosiyosiy omillarga ko'ra muhim tarkibiy qismi ekanligi, O'zbekistonning Afg'onistonda mustahkam tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan faol tashqi siyosiy yondashuvi hamda “Tolibon” omilining mintaqaviy xavfsizlik tizimiga o'rta muddatli istiqbolda ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda siyosiy-diplomatik, xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, shartnomaviy-huquqiy va madaniy-gumanitar chora-tadbirlar mexanizmlarini nazarda tutuvchi “O'zbekistonning Afg'oniston bo'yicha 2025-2035-yillarga mo'ljallangan strategiyasi”ni ishlab chiqishga oid ilmiy xulosalari, taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili xizmati tomonidan Respublika vazirlik va idoralariga yuboriladigan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili xizmatining 2025-yil 3-maydagi 18-108/11086-sonli dalolatnomasi*). Dissertatsiyadan olingan natijalar O'zbekistonning Afg'oniston bo'yicha tashqi siyosatini amalga oshirishda strategik jihatdan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan tahliliy ma'lumotlarni shakllantirishga xizmat qilgan.

Markaziy Osiyo davlatlarining “Tolibon” rahbarlik qilayotgan Afg'oniston Muvaqqat hukumatiga nisbatan yagona va umumiy yondashuvini ishlab chiqish, Markaziy Osiyo va Afg'oniston o'rtasida yuzaga kelayotgan transchegaraviy suv resurslaridan oqilona va mintaqa davlatlarining umumiy manfaatlaridan kelib chiqib birgalikda foydalanish, terrorism, diniy ekstremizm va etnik separatizm hamda narkotik moddalar savdosi kabi nizoli masalalarni siyosiy muzokaralar orqali muhokama qilish va hal qilishga ko'mak beruvchi mexanizm sifatida tashqi ishlar vazirlari darajasida “CA+AF” (Markaziy Osiyo va Afg'oniston) maslahat uchrashuvini tashkil etishga oid xulosalar, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti tomonidan tahliliy tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining 2025-yil 1-maydagi 05-4/555-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada dissertatsiyada keltirilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar Termiz shahrida tashkil etilgan “Markaziy Osiyo

va Afg'oniston: umumiy kelajakka nigoh" mavzusidagi xalqaro davra suhbatini tashkil etishga doir axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlashga xizmat qilgan.

Afg'onistonda "Tolibon" harakatining paydo bo'lish va rivojlanish evolyutsiyasi, uning diniy-g'oyaviy qarashlari va maslakhlarini tashqi tomondan uzoq yillar davomida shakllangan va afg'on jamiyatiga moslashtirishga qaratilgan deobandiylik, vahhobiylik, "Musulmon birodarlari" kabi mafkuraviy ta'limotlar bilan to'ldirilgani va pushtunlar jamoasi "Tolibon" harakatining etnik negizini tashkil etishi etno-diniy sinkretizm fenomeni asosida hamda bunday qarashlarning transformatsiyaga uchrayotgani Neotolibonizm paradigmasiga ko'ra asoslab berilganiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Musulmon idorasi tomonidan diniy-ma'rifiy ta'lim muassasalari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Musulmon idorasining 2025-yil 28-apreldagi 05-03/1141-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada dissertatsiya materiallari, ilmiy natijalari, ilgari surilgan xulosa, taklif va tavsiyalar Toshkent islom instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining "Siyosat va din", "Islom va hozirgi zamon", "O'zbekistonning eng yangi tarixi", "Din niqobidagi tahdidlarga qarshi kurash metodlari" va "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" fanlari o'quv dasturlarini tuzishda qo'shimcha adabiyot sifatida foydalanilishiga xizmat qilgan.

O'zbek va afg'on xalqlari o'rtasida millatlararo totuvlik, do'stlik va birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlash, ikki tomonlama madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish, jumladan Afg'onistondagi o'zbek vatandoshlar bilan ishlash hamda ular bilan mustahkam aloqalarni chuqurlashtirishni nazarda tutuvchi O'zbekistonning Afg'oniston bo'yicha 2025-2035-yillarga mo'ljallangan strategiyasi loyihasida ilgari surilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi axborot-tahliliy hujjatlari, seminar va davra suhbatlarini tashkil etishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 25-apreldagi 14-05-137-sonli dalolatnomasi*). Dissertatsiya natijalari xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash siyosatini shakllantirishda, ayniqsa, Afg'oniston va unga yaqin davlatlarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalarni chuqurlashtirish, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan axborot-tahliliy materiallar hamda ilmiy-tadqiqot va hamkorlik loyihalari doirasida xalqaro xavfsizlik, ekstremizm va dinlararo totuvlikka oid mavzularda seminar va davra suhbatlari tashkil etishga xizmat qilgan.

Shanxay hamkorlik tashkilotining Afg'onistonga qo'shni va daxldor mamlakatlarning barchasini qamrab olgan mintaqadagi yagona va noyob platforma ekanligi, Afg'onistondagi vaziyat tashqi yirik kuchlar tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan tazyiq ko'rsatish vositasi sifatida qo'llanilishini bartaraf etish va mintaqalararo xavfsizlik tizimini mustahkamlash maqsadida Shanxay hamkorlik tashkiloti huzurida Xavfsizlik qo'mitasini tashkil etishga doir ilmiy xulosa va natijalardan O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi tomonidan xalqaro konferensiya tadbirlarini tashkil etishda foydalanilgan. (*O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazining*

2025-yil 28-apreldagi 235/25-sonli ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy xulosalar, fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalar “ShHT kelajagi: hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlari” va “Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik: siyosiy-ijtimoiy va falsafiy-huquqiy aspektlari” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalariga doir axborot-tahliliy materiallarni tayyorlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro darajadagi va 5 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola va 1 ta monografiya nashr ettirilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy jami 267 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan, mavzuning o‘rganilganlik darajasi hamda uning dissertatsiya ishi bilan bog‘liqligi bayon qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi hamda asosiy tadqiqot usullari ko‘rsatib berilgan, olingan natijalarning ishonchlilik asoslangan holda, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiya va e‘lon qilingan ishlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Tolibon harakati paydo bo‘lishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “Tolibon” harakatining vujudga kelishiga ta‘sir ko‘rsatgan ichki va tashqi omillar, shuningdek, ushbu harakatni tadqiq etishga oid nazariy-metodologik yondashuvlar tadqiq etiladi.

Bugungi kunda Afg‘oniston taqdiri, davlat va jamiyat hayotida “Tolibon”³ omili muhim ahamiyat kasb etadi. Shak-shubhasiz, “Tolibon” XX asrning o‘rtalaridan boshlab Afg‘onistondagi harbiy-siyosiy jarayonlarning u yoki bu shakldagi faol ishtirokchisiga aylangan bo‘lsa, hozirda “afg‘on siyosiy sahnasi”ning asosiy ijrochisi sifatida hokimiyatni o‘z qo‘lida ushlab turibdi. E‘tiborli jihati shundaki, bugungi “Tolibon” omili faqatgina Afg‘onistonning yakka o‘zi bilan cheklanmaydi, uning paydo bo‘lish, shakllanish va rivojlanish

³ “Tolibon” atamasi arab tilida “tolib” (o‘quvchi, tahsil oluvchi) va fors tilidagi ko‘plik yasovchi “on” qo‘shimchasining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Biroq, aksariyat holatlarda ushbu atama o‘zbek tilida “tolibonlar” deya noto‘g‘ri talqin etilib, tavlologiyaga yo‘l qo‘yiladi. Shu nuqtayi nazardan, bunday siyosiy atamani “Tolibon” yoki “toliblar” deb talqin etish va yozuvda qo‘shirnoqqa olgan holda yozish lisoniy jihatdan maqsadga muvofiq. (Muallif izohi).

evolyutsiyasi shohidlik beradiki, u nafaqat Afg'onistonga yaqin va uzoqroq qo'shnilarga, balki arab-u ajam hamda okean orti o'lkalariga qadar allaqachon jiddiy e'tiborda turadigan omilga aylanib ulgurgan.

Afg'oniston zamini tarixan turli xil dinlar, mazhablar, qabilalar va elatlar yashagan makon bo'lib kelgan. Ular gohida tinch-totuv umrguzaronlik qilgan bo'lsa, gohida bir-biri bilan kelishmay turli nizolar va urushlarni boshdan kechirgan. Afsuski, shu paytgacha Afg'onistondagi qurolli nizo va urushlar tinchlik davriga nisbatan uzoqroq va ko'proq davom etgan. Bunday o'ziga xoslik Afg'onistonda "Tolibon" harakati paydo bo'lishi bilan bog'liq ichki omillarni ikki guruhga ajratib olishni taqozo etadi:

Diniy omil. Islom dini afg'onlarning nafaqat hayot tarzi, balki azaliy taqdiri hisoblanadi. Taqvodor musulmon afg'on uchun Islom dini hayot-mamot masalasidir. Taniqli diplomat, professor A.Haydarov qayd etganidek, Islom omili Afg'oniston siyosiy rahbariyatining barcha turdagi qarorlarini qabul qilishida bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim element hisoblanadi⁴. Afg'onistonda islomning siyosiy lashuv jarayonlarini, jumladan muxolif islomiy guruhlarining faollashuvini uchta guruhga ajratib olgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhni Misrdagi "Musulmon birodarlari" mafkurasi ta'siri ostida shakllangan islomizm tarafdorlari guruhi tashkil etadi. Mutaxassislar "Musulmon birodarlari" diniy-siyosiy qarashlarini Afg'onistonga kirib kelish davrini XX asrning 60-yillari bilan bog'lashadi. SSSR Davlat xavfsizlik qo'mitasi (KGB)ning Afg'onistondagi vakolatxonasi rahbari (1980-1982-yillar), general-mayor Viktor Spolnikovning yozishicha, Afg'onistondagi dastlabki islomiy fundamentalistik tashkilot 1969-yilda tashkil topgan. 1965-yil Kobul universitetining Ilohiyot fakulteti dekani, "professor" (*ustod*) G'ulom Muhammad Niyoziy tashabbusi bilan yopiq to'garak tashkil etildi. Shuningdek, Muhandislik fakultetida Gulbiddin Hikmatyor, Sayfiddin Nusratyor va Habib Rahmon tarkibidan iborat shunga o'xshash yana bir fundamentalistik to'garak tuzildi. Muhandislik fakulteti talabalari tashabbusi bilan "birgalikda kurashish" maqsadida ikkita to'garak faoliyati birlashtirildi va 1969-yilda bo'lib o'tgan uning ilk yig'ilishida Afg'onistondagi birinchi fundamentalistik tashkilot – "Musulmon yoshlari" (*Javonon-e musulmon*) tashkilotiga asos solindi⁵. E'tiborli jihati shundaki, "Musulmon yoshlari" Misrdagi "Musulmon birodarlari" tashkilotining mafkurasini o'z faoliyati uchun asosiy namuna sifatida belgilab olgan edi. Fransuz islomshunos olimi Olivye Ruaning qayd etishicha, Afg'onistonda muxolif islom harakatlarining kuchayish jarayoni 1958-yilda asos solingan "Islomiy jamiyat" harakati (*tahrik-e islomi yoki nihzat-e islomi*) bilan chambarchas bog'liq⁶.

Ikkinchi guruh "Deobandiylik" (deobandizm) mafkurasi asosida tashkil etilgan diniy guruhlar hisoblanadi. Deobandiylik hadislar va hanafiy mazhabining ta'limoti hamda huquqiy an'alariga tayanadi. Mazkur harakat asoslarining yaratilishi 1866/67-yillarda Deoband shahrida tashkil etilgan "Dor ul-ilm" (*Ilm*

⁴ Хайдаров А.А. Влияние исламского фактора на советско-афганские отношения (1978-1990 гг.). Автореферат на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Москва, 1991. – С.3.

⁵ Спольников В.Н. Афганистан: исламская оппозиция. Истоки и цели. – Москва, Наука. 1990. – С.15-16.

⁶ Olivier Roy. Islam and Resistance in Afghanistan. Cambridge University Press (second edition), 1990. – P.70.

uyi) madrasasi faoliyati bilan bevosita bog'liq. 1879-yilda Hindistonda jami 12 ta deobandiy madrasalar mavjud bo'lgan bo'lsa, XX asrning 60-yillariga kelib ularning soni Janubiy Osiyoda 9000 taga yetgan⁷. 1929-yil yanvarda Kobulni qo'lga kiritgan Bacha-ye Saqo⁸ (keyinchalik Habibulloh Ko'lakoniy) rahbarligidagi boshqaruv faoliyatini mustaqil Afg'oniston tarixidagi ilk fundamentalistik harakat sifatida baholash mumkin. Ma'lumotlarda aytilishicha, Bacha-ye Saqo o'zini avval boshdanoq afg'onistonlik tojiklarning milliy yetakchisi sifatida emas, balki musulmon hukmdor sifatida tutgan. Shu jihatdan, Bacha-ye Saqo o'z hokimiyati va ta'sirini nafaqat afg'onlarga, balki butun umma, jumladan Hindiston va Sovet O'rta Osiyosiga qadar kengaytirishni maqsad qilgan. Afg'on tarixchisi Mir G'ulom Muhammad G'ubor "Afg'oniston tarix silsilasida" kitobida Habibullo Ko'lakoniy afg'onlarni Buxoroni ozod qilish uchun kurashga chaqirgani va Buxoro amiri taxtini egallashga ishtiyoqi baland bo'lgani, shuningdek, musulmonlar uchun muqaddas sanalgan sandal darvozasini Hindistondan Afg'onistonga olib kelishni maqsad qilgani haqida e'tiborga molik ma'lumotlar keltirib o'tgan⁹.

Uchinchi guruh. "Tolibon" harakatining tub negizi deobandiy madrasalarining ta'limotlariga borib taqalishini tasdiqlashga imkon beradigan ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, Vahhobiylik ta'limotlari ham qisman "toliblar"ning diniy maslaklariga ta'sir ko'rsatgan, deb hisoblash mumkin. Bu jarayon ayniqsa Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishi arafasida ancha kuchaydi. "Tolibon" tadqiqi bilan shug'ullangan pokistonlik taniqli mutaxassislardan biri Ahmed Rashid ham o'zini salafiylar deb ataydigan "afg'on vahhobiylari" haqida so'z yuritib, ularning mafkurasi oddiy afg'onlar tomonidan xushlanmasligi natijasida Afg'oniston bo'ylab keng tarqalmaganini o'z asarida qayd qilgan¹⁰.

Ko'rinib turganidek, "Tolibon" harakati paydo bo'lishining diniy ildizlari ancha tarixiy va tabiiyki, "Musulmon birodarlari", Deobandiylik yoki Vahhobiylik kabi radikal diniy qarashlardan ilhomlangani xususida turli xil ilmiy bahslarni keltirib chiqaradi. Shunday bo'lsa-da, bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, "Tolibon" harakati kelib chiqishining diniy-g'oyaviy asosini Deobandiylik ta'limoti tashkil etadi. Qolgan radikal qarashlar esa, tashqi omillar ta'siri bilan "Tolibon" mafkurasi uchun faqat to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Etnik omil. Afg'oniston turfa etnoslar va qabilalar mamlakati. Ushbu o'lkada 30 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. "Tolibon" harakatining etnik yadrosini aynan pushtunlar tashkil etishi, o'z navbatida ular o'ziga tarafdor bo'lganlarning saflarini kengaytirishda pushtunlar omilidan foydalanganiga alohida urg'u berish lozim. AQSh armiyasi harbiy kollejining Yaqin Sharq tadqiqotlari bo'yicha professori Larri Gudson "Tolibon" harakati rivojlanishining 5 ta omilini sanab o'tadi. Bular: pushtunlar, jangovar bo'lmagan aholi qatlami, diniy

⁷ Бобоқулов И.И. Афғонистон. Луғат-маълумотнома. – Т.: "Complex Print", 2021. – Б.87.

⁸ Bacha-ye Saqo – Suv tashuvchining o'g'li. Etnik jihatdan kelib chiqishi tojik millatiga mansub.

⁹ میر غلام محمد غبار. افغانستان در مسیر تاریخ. مرکز نشر انقلاب. ۱۳۶۸-ص.۸۲۷.

¹⁰ Rashid Ahmed. Taliban: The Power of Militant Islam in Afghanistan and Beyond. – London. I.B.Tauris, 2010. – P.85.

taqvo, pul mablag'lari va Pokiston yordami¹¹. Bu yerda professor "Tolibon" harakatining kuchayishidagi dastlabki omil sifatida aynan pushtunlar omilini keltirib o'tganligini ko'rish mumkin. Indiana universiteti professori Abdulqodir Sinning yozishicha, 1978-yildan buyon faqat "Tolibon" harakati pushtunlarni umumiy safarbar qila olishga muvaffaq bo'ldi¹².

"Tolibon" harakatining shakllanish jarayonlarini tadqiq etish o'ziga xos retrospektiv yondashuvni talab etadi. Jahon hamjamiyati "Tolibon" haqida ilk marta 1990-yillarning o'rtalarida xabar topgan bo'lsa ham uning tashkil topishi va rivojlanish tendensiyasi yuzasidan o'rganilgan izlanishlar harakatning bu vaqtdan ancha avvalroq vujudga kelganiga ishora qiladi. Boshqacha aytganda, jahon afkor ommasi madrasa "toliblari"ning "Tolibon" harakati sifatida afg'on siyosiy sahnasiga chiqishi va harbiy-siyosiy muvaffaqiyatga erishishiga qadar ularning taxminan 20 yilga yaqin tarixi borligidan hali bexabar edi. Bu harakat tashqi kuchlarning Afg'onistondagi istiqbolli manfaatlaridan kelib chiqib, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan strategik loyiha o'laroq shakllantirildi va qudratli tuzilma holiga keltirildi. Shu jihatdan, "Tolibon"ning paydo bo'lishiga keng xalq harakatining natijasi deb baho beradigan fikrlarga qo'shilish juda mushkul. Uning tashkil topishi Sovet-afg'on urushi paytidagi geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvining mahsuli hisoblanadi. Xususan, o'sha vaqtda afg'on zaminida shakllangan keskin geosiyosiy holat AQSh, Pokiston va Saudiya Arabistoni singari davlatlar oldida "Tolibon" loyihasini ishlab chiqishdek muhim va strategik manfaatlar mushtarakligini vujudga keltirdi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi "Tolibon"ga nisbatan turli xil yangi nazariyalar va yondashuvlarni ilgari surishni taqozo etmoqda. Bizningcha, quyidagi nazariyalar "Tolibon" omilini akademik jihatdan baholash, ilmiy bahs-munozaralarga kirishish hamda yangi nazariy g'oyalarni yaratish uchun yaqindan xizmat qilishi mumkin:

Qora oqqush nazariyasi. Sodir bo'lishi kutilmayotgan hodisaning ro'y berishi yoki sodir bo'lishi ehtimoli kutilayotgan hodisaning ro'y bermasligi Qora oqqush nazariyasining mantig'ini tashkil etadi. "Tolibon" harakatining birinchi (1996) va ikkinchi (2021) marta hokimiyatni egallashi bu Qora oqqush hisoblanadi. "Tolibon" harakatining Afg'oniston hokimiyatiga (qayta) kelishi oddiy odamlar uchun Qora oqqush hisoblansa, uni rejalashtirgan va siyosiy sahnaga olib chiqqan kuchlar uchun ma'lum bo'lgan hodisa edi. Agarda ko'zda tutilgan reja qandaydir sabablarga ko'ra amalga oshmay qolganda bu hodisa o'sha kuchlar uchun Qora oqqushga aylanardi.

Tolibonizm (Talibanism) nazariyasi. Tolibonizmni "Tolibon" harakatining diniy boshqaruv shaklini ifoda etuvchi nazariya, deb aytish mumkin. Buyuk Britaniya xavfsizlik tashkilotining Yaqin Sharq va Afg'oniston bo'yicha mutaxassislaridan biri Piter Marsden Misrdagi "Musulmon birodarlar", Saudiya Arabistonining Vahhobiylik, Liviya va Erondagi islomiy inqilob harakatlari hamda

¹¹ Larry P. Goodson. Afghanistan's Endless War: State Failure, Regional Politics, and the Rise of the Taliban. University of Washington Press, 2001. – P.109-111.

¹² Sinno Abdulkader. Explaining the Taliban's Ability to Mobilize the Pashtuns // The Taliban and the crisis of Afghanistan. – Cambridge, Harvard University Press. 2009. – P.59.

“Tolibon” harakati o‘rtasidagi diniy-mafkuraviy qarashlarning o‘xshash va farqli jihatlarini taqqoslab, ularning “Tolibon” diniy aqidasi o‘zmi-ko‘pmi ta’sir ko‘rsatgani xususida quyidagicha xulosaga keladi: “ “Tolibon” o‘z motivlarini ma’lum bir harakatdan ilhomlanib, uni namuna sifatida olgan, deb xulosa qilish oqilona bo‘lmaydi. Biroq, uning a’zolari ushbu g‘oyalarning aksariyati muomalada bo‘lgan muhitda tarbiyalangan va tahsil olgan. Shunday qilib, “Tolibon” islomiy qonun-qoidalar tartibini joriy qilishda afg‘on urf-odatlarini va tajribasiga amal qilayotganini iddao qilsa-da, uning mafkurasiga boshqa islomiy oqimlarning ta’siri ko‘rsatganini inkor etib bo‘lmaydi”¹³. Biz bu nazariyani hozirgi “Tolibon 2.0” hukumati faoliyatidan kelib chiqqan holda ikki qismga ajratib tadqiq qilish lozim, deb hisoblaymiz.

Neotolibonizm (Neo-Talibanism). London Qirollik maktabi (Kings College London) professori, Qirollik birlashgan mudofaa va xavfsizlik tadqiqotlari institutining (Royal United Services Institute for Defence and Security Studies (RUSI) katta ilmiy xodimi, “Tolibon” harakati va Afg‘onistonda terrorizm masalalari bilan shug‘ullangan taniqli ekspert Antonio Justotsi “eski Tolibon” va “yangi Tolibon” o‘rtasidagi farqli jihatlarni tadqiq etadi¹⁴. Eronlik olimlar Said Yahyo Rahim Safaviy, Olmos Islomiy va Kiyonush Kiyokjuriy tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, Afg‘onistonda ichki birdamlikning yo‘qligi va “Tolibon”ning butun mamlakat bo‘ylab to‘laqonli suverenitetni amalga oshira olmasligi hamda turli ijtimoiy-siyosiy guruhlarni davlat va jamiyat qurilishi jarayoniga jalb eta olmagan Afg‘onistonda Neotolibonizm paydo bo‘lishining mushkulotidan biri hisoblanadi. Ushbu olimlar Kopengagen maktabi namoyondalari Barri Buzan va Ole Vever tomonidan ishlab chiqilgan mintaqaviy xavfsizlikning kompleks nazariyasi asosida Afg‘onistonda Neotolibonizmning vujudga kelishini tashqi tahdid sifatida baholaydi¹⁵.

Pantolibonizm (Pan-Talibanism). Pantolibonizm “Tolibon”ning diniy maslaklari va mafkuraviy qarashlarini Afg‘onistondan tashqariga yoyishga qaratilgan ta’limot sifatida kengroq ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Shu jihatdan Pantolibonizm islomiy mafkuralarning

“Tolibon”ga xos ko‘rinishlaridan biridir.

Tadqiqot ishining **“Afg‘oniston Islom Amirligi” davridagi vaziyatning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimiga ta’siri (1996-2001-yillar)** deb nomlangan ikkinchi bobida “Tolibon” harakatining Afg‘oniston siyosiy sahnasida paydo bo‘lishi va natijada Afg‘oniston hududining Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta’sir etuvchi jiddiy tahdid manbayiga aylangani tadqiq etilgan.

XX asrning 90-yillari boshlarida Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligini ta’minlash tizimi shakllanmaganligi sababli dastlab mintaqaning har bir davlatida xavfsizlikka nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud edi. Ammo, diniy ekstremizm,

¹³ Marsden Peter. The Taliban: War and Religion in Afghanistan. – London, Zed Books Ltd. 2002. – P.76-77.

¹⁴ Giustozzi Antonio. Koran, Kalashnikov and Laptop: Neo-Taliban Insurgency in Afghanistan. – London, 2007. – P.12-13.

¹⁵ سيدیجی رحیم صفوی، الماس اسلامی، کیانوش کیاکجوری. نوظالیانسیسم در افغانستان و امنیت ملی جمهوری اسلامی ایران // فصلنامه مطالعات بنیادین و کاربردی جهان اسلام، سال پنجم، شماره هفدهم، پاییز ۱۴۰۲. ص. ۱۱۹.

Said Yahyo Rahim Safaviy, Olmos Islomiy, Kiyonush Kiyokjuriy. Afg‘onistonda Neotolibonizm va Eron Islom Respublikasi milliy xavfsizligi // Islom dunyosining fundamental va amaliy tadqiqotlari jurnali. № 3, 2023. – B.119.

terrorizm va narkotik moddalar savdosi kabi xatarlar mintaqaning barcha davlatlarini birdek xavotirga solgan. Eng e'tiborlisi, ushbu xatarlarning barchasi Afg'onistonda fuqarolar urushining boshlanishi, keyinchalik Kobulda "Tolibon" hokimiyatining o'rnatilishi bilan chamcharchas bog'liq edi.

Afg'onistonda "kommunizm ustidan islomizm g'alabasi" Markaziy Osiyo mintaqasida ham aks-sado berdi. Bunga ma'lum ma'noda XX asrning 60-70-yillari oxirlarida Yaqin Sharq va Afg'oniston hududlarida boshlangan "islom uyg'onishi" hodisasi katta turtki berdi. Professor R.Alimov tojikistonlik ekspertlardan iqtibos keltirar ekan, agarda o'tgan asrning 60-70-yillarida islomiy qarashlarda yangi oqimlar va turli yo'nalishlar paydo bo'lmaganda edi, bunday "mafkuraviy tajovuzlar" butun sobiq Sovet Ittifoqi makonida, shu jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarida siyosiy islomning kuchayishiga olib kelmas edi¹⁶, deb qayd etadi. XX asrning 90-yillari boshlariga kelib, mintaqadagi mafkuraviy bo'shliqni islomizm g'oyalari orqali to'ldirishga katta urinishlar sodir bo'ldi. Natijada "Hizb ut-tahrir", "O'zbekiston islom harakati", "Tojikiston islom uyg'onish partiyasi", "Adolat", "Tavba", "Tablig'chilar", "Akromiylar", "Islom lashkarlari", "Nurchilar" kabi o'nlab ekstremistik tashkilotlar Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligiga jiddiy tahdid sola boshladi. "Tolibon" harakatining "Al-Qoida" xalqaro terroristik tashkilotiga boshpana berishi va mintaqaga xavf soluvchi bir qator terroristik va ekstremistik tashkilotlarning Afg'oniston va Pokistondagi lagerlarda tayyorgarlikdan o'tishi Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligini mustahkamlash jarayonini so'roq ostida qoldirar edi. Hujjatlarga ko'ra, Pokistonda 180 ta harbiy lager tashkil etilib, unda 40,000 dan ortiq ekstremistlar tayyorgarlikdan o'tgan¹⁷. Londonda joylashgan Xalqaro strategik tadqiqotlar institutining yillik hisobotida keltirilgan tahlillarga ko'ra, 1996-2001-yillar davomida afg'on lagerlarida "Al-Qoida" tomonidan 18,000 ta mujohid tayyorlangan. Ular hozirda 60 ta mamlakat bo'ylab tarqalgan¹⁸. Ammo, 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan keyin AQShning xalqaro terrorizmga qarshi kurash amaliyotlari Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimi shakllanishining yangi bosqichini boshlab berdi.

XX asrning 90-yillarida Afg'onistondagi vaziyatning keskinlashuvi, "Tolibon" harakatining hokimiyatga kelishi bilan narkotik moddalar savdosi avj ola boshladi. Zeroki, bu davrga kelib narkobiznes terrorizm va ekstremizmni moliyalashtiruvchi muhim manbalardan biriga aylangan edi. "Tolibon" nazoratiga o'tgan hududlarda narkobiznes daromadning asosiy qismini tashkil etar edi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu paytda afyun Afg'onistonning 32 ta viloyatidan 10 tasida ishlab chiqarilgan va "toliblar" ulardan 8 ta viloyatni o'z nazorati ostiga olgan. Bular Faroh, Nimruz, Hilmand, Qandahor, O'ruzgon, Zobul, Nangarhor va Kunar. 1995-1996-yillar davomida giyohvand moddalar yetishtirilgan maydonlar hajmi 55,000 va 58,000 gektar oralig'ida bo'lgan. Quruq afyun hosili yiliga 2,200 va 2,300 tonnani tashkil etib, bu global noqonuniy narkotik moddalar savdosining 40

¹⁶ Alimov R.M. Central Asia: Common Interests. – T.: Sharq, 2005. – P.361.

¹⁷ Documents expose: In the Continuation of Interference. Pakistan violates Geneva Agreements. 1990. – P.27.

¹⁸ Маккамбаев П.А. Военно-политическая ситуация в Афганистане и ее влияние на пограничную безопасность государств Центральной Азии. – Т.: Адолат, 2013. – С.330.

foizlik ulushi demakdir¹⁹. Afgʻoniy manbalarning shohidlik berishicha, 1997-yili Afgʻonistonda ishlab chiqariladigan giyohvand moddalarning 94,6 foizi “Tolibon” tasarrufidagi hududlarda yetishtirilgan. 1998-yilda Afgʻonistonda afyun moddasini ishlab chiqarish 25 foizdan oshib, 2800 tonnani tashkil etgan. Chop etilgan maʼlumotlarga koʻra, Afgʻonistonda yetishtirilgan giyohvand moddalarning 90 foizi kontrabanda yoʻli bilan mamlakat tashqarisiga chiqarilgan²⁰. 1999-yilga kelib Afgʻoniston dunyo narkomakonining yetakchisiga aylandi. Oʻsha yili mamlakatda narkotik moddalar hajmi rekord darajaga, yaʼni 4565 tonnaga yetdi.

“Tolibon” harakatining 1997-yilga kelib, Afgʻoniston shimolini ham qoʻlga kiritishi va mamlakatning deyarli 90 foizini nazorat ostiga olishi, shuningdek, Tojikistonda sodir boʻlgan birodarkushlik urushi Markaziy Osiyo mintaqasida afgʻon qochqinlari muammosini keltirib chiqardi. Taʼkidlash joizki, qochqinlar muammosi 1997-yildan eʼtiboran Afgʻoniston shimolidagi qarama-qarshi kuchlar oʻrtasidagi toʻqnashuvlarning etnik xususiyat kasb etishi bilan yanada kuchaydi. Asosiy qismi pushtunlardan tashkil topgan “Tolibon” harakatiga qarshi 1997-yilda Afgʻoniston shimolida asosan etnik oʻzbek va tojik xalqlaridan tashkil topgan “Shimoliy ittifoq”²¹ nomli harakat vujudga keldi. Biroq, “Shimoliy ittifoq” kuchlarining “Tolibon” tomonidan magʻlub etilishi Markaziy Osiyoda qochqinlar oqimining sezilarli tarzda kuchayishiga va mintaqada etnik xavfsizlik masalasini zudlik bilan hal etish zaruratiga ishora qilar edi. Maʼlumotlarga koʻra, 1993-yildan 2001-yilgacha Qirgʻizistonda 2,266 nafar Afgʻoniston fuqarosi roʻyxatdan oʻtgan boʻlsa, Oʻzbekistonda bu raqamlar 8,000 nafarni tashkil qilgan. 1994-yildan 1998-yilgacha Qozogʻistonda 2,105 nafar afgʻonlar roʻyxatga olingan. 1997-yilda Tojikistonda 20,000 noqonuniy afgʻon muhojirlar borligi aniqlangan²². Ushbu raqamlarni umumiy hisoblab chiqilsa, XX asrning 90-yillarida taxminan 30 mingdan ortiq afgʻon muhojirlari Markaziy Osiyoda boʻlgan. Tabiiyki, mintaqada afgʻon qochqinlari sonining ortishi qabul qiluvchi mamlakatlar oldida ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi bilan birgalikda, noqonuniy qochqinlar orasida terrorchi va ekstremistik guruh aʼzolarining ham mintaqaga kirib kelish xavfini paydo qilar edi.

Taʼkidlash oʻrinliki, mintaqada davlatlari ushbu davrda xavfsizlik bilan bogʻliq juda katta qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. Ushbu muammolarning aksariyati bir tomondan, Afgʻonistonda “Tolibon” harakatining paydo boʻlishi bilan bevosita bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan, Tojikistonda fuqarolar urushining boshlanishi natijasida yanada keskin tus oldi. “Tolibon” kuchlarining Afgʻoniston hududlarini birin-ketin zabt etishi, buning ortida turgan kuchlarning geosiyosiy manfaatlari doirasini hisob-kitob qilgan holda, Markaziy Osiyo davlatlari ham “Tolibon”ga nisbatan shunga monand yondashuvni ilgari sura boshladi. Tadqiqot va tahlillarga koʻra, Markaziy Osiyo davlatlarining ushbu davrdagi “Tolibon” hokimiyatiga

¹⁹ Matinuddin Kamal. The Taliban phenomenon: Afghanistan 1994-1997. – New York. Oxford University Press, 1999. – P.118.

²⁰ Press Release of the Embassy of the Islamic State of Afghanistan in Tashkent. 1998 йил 1 январь. – Б.7-8.

²¹ Rasmiy nomi – Afgʻonistonni qutqarish yagona milliy islomiy jabhasi.

²² Князев А.А. Влияние афганского кризиса на безопасность Центральной Азии (1990-е-начале 2000-х гг.). Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктор исторических наук. – Бишкек, 2004. – С.27-28.

nisbatan yondashuvlarini 3 ta qismga ajratib olish maqsadga muvofiq. Birinchisi, “Tolibon” hokimiyatini qo‘llab-quvvatlagan tomon (Turkmaniston), ikkinchisi, “Tolibon” harakatiga dastlab qarshi pozitsiyada, keyinchalik u bilan tegishli va vaqtinchalik muloqot o‘rnatgan tomon (O‘zbekiston) va uchinchisi, Afg‘onistonda “Tolibon” boshqaruviga butunlay qarshi bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari (Tojikiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston).

O‘zbekiston jo‘g‘rofiy joylashuvi jihatdan Markaziy Osiyoning qolgan barcha davlatlari va Afg‘oniston bilan bevosita chegaradosh mintaqadagi yagona davlat bo‘lib, bu uning mintaqaviy xavfsizlik jarayonlaridagi o‘rni va ahamiyatini e‘tirof etishga yorqin sabab bo‘ladi. Xususan, ikki qo‘shni davlat – Afg‘oniston va Tojikistonda sodir bo‘lgan birodarkushlik urushlari tufayli terrorizm va ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog‘lar savdosining butun Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘ylab tarqalishi xavfi, shuningdek, turli etnoslararo mojarolarni oldini olishga qaratilgan jarayonlarda O‘zbekiston Respublikasi sezilarli darajada hissa qo‘shdi. Ahmed Rashid yozganidek, “O‘zbekiston yangi Katta o‘yinda asosiy o‘yinchi hisoblanadi”²³. Tabiiyki, bu jumlaning o‘ziga xos ma‘nosi bor. O‘zbekiston 1999-yildan e‘tiboran bir tomonda “Tolibon” bilan tegishli muloqotga kirishgan bo‘lsa, boshqa tomondan, Shimoliy ittifoq bilan aloqalarni saqlab turdi. Shu tariqa, O‘zbekiston Afg‘onistonda kurashayotgan barcha tomonlarni o‘t ochishni to‘xtatishga da‘vat etib, afg‘on mojarosini muzokaralar orqali siyosiy yo‘l bilan hal etish jarayonlariga o‘z hissasini qo‘shdi. 1996-2001-yillardagi “Tolibon” boshqaruvi va keyinchalik AQSh rahbarligidagi xalqaro koalitsiya kuchlarining Afg‘onistonga kirib kelgan yillarida O‘zbekiston ma‘muriyati “6+2” va “6+3” muloqot guruhlari kabi muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Dissertatsiyaning **“Yirik va mintaqaviy kuch markazlarining Afg‘onistondagi manfaatlarida “Tolibon” omili”** deb nomlangan uchinchi bobi AQSh, Xitoy, Rossiya, Pokiston, Eron, Hindiston hamda arab davlatlarining “Tolibon” bilan bog‘liq manfaatlari va yondashuvlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

AQShning 47-prezidenti Donald Tramp ma‘muriyati Afg‘oniston masalasini AQSh tashqi siyosatining kun tartibiga qayta chiqarmoqda. Bu degani AQSh bundan keyin ham bu o‘lkada o‘z manfaatlarini (xoh u “Tolibon” vositasida bo‘lsin, xoh boshqa yo‘llar bilan) doimo saqlab turishga intiladi. Amerikaning Afg‘oniston bo‘yicha hozirgi tashqi siyosiy yondashuvlarida mintaqadagi ittifoqchilarining imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga asosiy e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, Qatar, BAA, Hindiston va Saudiya Arabistoni singari davlatlar “Tolibon 2.0” hukumati bilan yaqin aloqalari sababli Qo‘shma Shtatlarning Afg‘onistondagi asosiy sheriklariga aylanmoqda.

Xitoy AQSh va Rossiyadan farqli ravishda, Afg‘oniston bilan umumiy chegaraga ega yirik qo‘shni davlat sanaladi. Xitoyning 2021-yildan keyin “Tolibon 2.0” hukumati bilan o‘rnatgan tezkor muloqotini ikkita muhim sabab bilan izohlash mumkin: Bular AQShdan keyin Afg‘onistondagi geosiyosiy bo‘shliqni iqtisodiy diplomatiya vositasi orqali to‘ldirish hamda milliy-mintaqaviy

²³ Rashid Ahmed. Taliban: The Power of Militant Islam in Afghanistan and Beyond. – London. I.B.Tauris, 2010. – P.150.

xavfsizlikni ta'minlash. Shu nuqtayi nazardan, Pekinning "Tolibon 2.0" bilan bog'liq geosiyosiy manfaatlari "xavfsizlik evaziga investitsiya" tamoyiliga asoslangan. Xitoy Afg'onistonning qaytadan fuqaro urushi girdobiga tushishi, ekstremizm, separatizm va terrorizm makoniga aylanishidan manfaatdor emas.

"Tolibon" harakati Afg'onistonda qayta hokimiyatga kelgandan keyin Rossiya dastlab kuzatuvchilik pozitsiyasini egalladi. Boshqacha aytganda, Moskva bir tomondan Afg'onistonni to'liq nazoratga olgan "Tolibon 2.0" hukumati bilan hamkorlik qilishga intildi, boshqa tomondan Markaziy Osiyo davlatlarining "Tolibon 2.0" hukumatiga nisbatan yondashuvlarini diqqat bilan kuzatdi. Umuman, "Tolibon 2.0" hukumati Rossiyaning Afg'onistonga oid geosiyosiy manfaatlari qisman aks ettiradi. Biroq, Moskva bugungi "Tolibon 2.0" hukumati bilan aloqalarida "ishon, lekin tekshir" (доверяй, но проверяй) tamoyilini afzal ko'rmoqda.

Pokiston Afg'oniston bilan eng katta chegaraga ega qo'shni davlatdir. 2018-yildan AQSh va "Tolibon" harakati o'rtasida jadal sur'atlarda boshlangan muzokaralar aksariyat tahlilchilar nazdida Pokistonning muvaffaqiyati sifatida baholangan edi. Chunki, bunday baho Amerika Afg'onistondan harbiylarini olib chiqib ketgandan keyin "Tolibon" harakati Kobul hokimiyatini qo'lga olishi, buning ortidan esa Pokiston Afg'onistonda ta'sir kuchiga ega bo'lgan yagona aktorga aylanadi, degan farazlarga asoslanar edi. Ammo, vaqtlar o'tib bunday farazlar o'z tasdig'ini topmadi. Aksincha, bugungi kunda Islomobod va "Tolibon" munosabatlari keskinlashib, o'zaro jiddiy raqobatchilarga aylanib bormoqda. Tahlillar va kuzatishlardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, Islomobod va "Tolibon" o'rtasidagi aloqalar birodarlikdan (Tolibon 1.0) raqobatgacha (Tolibon 2.0) bo'lgan davrni qamrab oladi. Bizningcha, buning sabablarini aniqlash va baholashda Pokiston va Afg'oniston munosabatlariga ta'sir etuvchi "Dyurand chizig'i", pushtunlar masalasi, "Tehrek-e Tolibon Pokiston" (TTP), qochqinlar va suv omillariga e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi.

Eron Islom Respublikasi Afg'oniston bilan o'zaro yaqin ijtimoiy-madaniy va siyosiy aloqalar tarixiga ega. AQSh Afg'onistondan harbiy kuchlarini olib chiqqani va Kobulda "Tolibon" hokimiyatining o'rnatilishi Tehron uchun maqbulroq muhitni yuzaga keltirishi mumkin edi. Chunki, AQShning shundoq Eron chegarasida harbiy mavjudligidan ko'ra "Tolibon" bilan muloqot qilish Tehron uchun afzalroq hisoblanar edi. Biroq, Eronning Afg'onistondagi siyosatida "Tolibon 2.0" hukumati bilan etno-diniy mojarolar, qochqinlar, suv omili va chegara xavfsizligi kabi muammolar vujudga keldi va bu jarayon davom etmoqda. Shu sababdan, Eronning "Tolibon 2.0" bilan bog'liq manfaatlari chegara xavfsizligini ta'minlashda "toliblar" hukumati bilan aloqalarni saqlab turish, nizolarni muzokaralar orqali hal etish va bu borada muvozanatlashgan diplomatiyani qo'llash hamda Eronning mintaqadagi raqiblari hisoblangan Saudiya Arabistoni va Qatar davlatlarining "Tolibon" vositasi orqali Afg'onistonda aksil-Eron kayfiyatini alanga oldirishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Hindiston Afg'oniston bilan bevosita chegaraga ega bo'lmasa-da, ushbu mamlakatni yaqin qo'shni davlat sifatida ko'radi. 2021-yilda AQSh harbiy kuchlarining Afg'oniston hududidan chiqib ketishi va "Tolibon" harakatining

Kobul hokimiyatini qo‘lga kiritishi dastlab Hindistonning barcha sa’y-harakatlarini puchga chiqargandek taassurot uyg‘otdi. Chunki, Islomobod va “Tolibon” o‘rtasidagi yaqin aloqalar Nyu Delini doimo xavotirga solib kelgan. Shu sababdan, Hindiston Afg‘oniston atrofida “Tolibon” bilan muloqot qilishdan o‘zini tiyib turgan ikki davlatdan biri (ikkinchisi Tojikiston) edi. Ammo, so‘nggi vaqtlarda “Tehrek-e Tolibon Pokiston” sababli Pokiston va “Tolibon” o‘rtasidagi ziddiyat ko‘lami shu qadar kuchaydiki, bu holat Hindistonning “Tolibon”ga nisbatan qarashlari va yondashuvlarini o‘zgartirib, yangi strategiya ishlab chiqish zaruratini vujudga keltirdi. Shu jihatdan, Nyu Deli “Tolibon” bilan tegishli aloqalarni o‘rnatishga va shu orqali Pokistonga qarshi de facto “Tolibon” hukumatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan sa’y-harakatlarni boshladi. Shu nuqtayi nazardan, hozirgi real voqelik sharoitida “Tolibon” omili Hindiston uchun strategik imkoniyat manbasi sifatida qaralmoqda.

So‘nggi o‘n yil ichida Qatar davlati Afg‘onistonga daxldor mintaqaviy aktorlar orasida muhim o‘yinchilardan biriga aylandi. Ta’kidlash lozimki, Qatar Saudiya Arabistoni va BAA kabi arab davlatlaridan farqli ravishda Afg‘onistonni 1996-2001-yillarda boshqargan “Tolibon” hukumatini rasman tan olmagan. “New York Times” nashri ma’lumotlariga ko‘ra, Saudiya Arabistoni va BAA o‘z vaqtida “Tolibon” harakatining siyosiy idorasini o‘z hududida ochish uchun Qatar bilan raqobat qilishgan²⁴. Ammo, 2013-yilda Dohada ochilgan “Tolibon” harakatining siyosiy mahkamasi qisqa vaqt ichida Qatarining afg‘on inqirozini “hal etish”dagi ta’sirini belgilab berdi.

Saudiya Arabistoni ma’muriyati Afg‘onistonda yangi tuzilgan hukumatga nisbatan dastlab “kuzatish va kutish” pozitsiyasini tanlab, mavjud aloqalarni gumanitar dasturlar va xayriya jamg‘armali orqali, shuningdek Islom hamkorlik tashkiloti va Islom taraqqiyot banki vositasida amalga oshirdi. Ammo Ar-Riyod Afg‘onistondagi vaziyatga uzoq vaqt befarq qarab tura olmas edi. Chunki, “Tolibon” nafaqat Afg‘oniston hokimiyatini egallagan real kuch o‘laroq, balki mintaqaviy aktorlar bilan tegishli muloqotni yo‘lga qo‘ygan guruh sifatida o‘zini namoyon qila oldi. Qolaversa, Saudiya Arabistonining geosiyosiy manfaatlari Afg‘onistonni Eronning siyosiy ta’sir hududiga aylanishiga umuman imkon bermaslik vazifasi bilan chambarchas bog‘langan edi. Bunday holat alal-oqibat Saudiya Arabistonining islom olamidagi yetakchilik mavqeyiga jiddiy zarar keltirishini mamlakat rahbariyati juda yaxshi anglardi. Shu boisdan Saudiya Arabistoni bugungi kunda “Tolibon” bilan aloqalarni davom ettirishdan boshqa muqobil yo‘l mavjud emas, deb hisoblamoqda.

Arab monarxiyalari orasida BAA ham “Tolibon 2.0” hukumati bilan yaqin aloqalarni yo‘lga qo‘ygan mintaqaviy kuch markazlari sirasiga kiradi. Abu Dabining ham Afg‘onistondagi manfaatlari xuddi Ar-Riyod singari umumiy o‘xshashliklarga ega. Saudiya Arabistonidan farqli ravishda Abu Dabi o‘tgan vaqtlar davomida “Tolibon” tarmoqlari bilan aloqalarini butunlay uzmagan. Qatardan farqli jihati esa BAA “Tolibon” harakatining siyosiy qanotidan ko‘ra,

²⁴ Persian Gulf Rivals Competed to Host Taliban, Leaked Emails Show // New York Times, July 31, 2017. <https://www.nytimes.com/2017/07/31/world/middleeast/uae-qatar-taliban-emails.html>

harbiy qanoti bilan mustahkam aloqalar ildiziga ega. Ma'lumotlarga ko'ra, "Tolibon" harakatining "Haqqoniy tarmog'i" (Haqqani network) uzoq yillar davomida BAAning moliyaviy ko'magi asosida qo'llab-quvvatlangan.

Dissertatsiyaning **"Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik transformatsiyasi sharoitida "Tolibon" omili: imkoniyatlar, muammolar va istiqbol"** deb nomlangan to'rtinchi bobida Markaziy Osiyo davlatlarining "Tolibon 2.0" hukumatiga nisbatan tashqi siyosiy yondashuvlari, ushbu hukumat faoliyatining Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimiga, jumladan O'zbekiston mintaqaviy xavfsizlik strategiyasiga ehtimoliy ta'siri masalalari tahlil etilgan.

2021-yil 15-avgustdan e'tiboran Ashraf G'ani rahbarligidagi Kobul hukumatining qulashi va nazoratning "Tolibon" harakati qo'liga o'tishi, shuningdek, avgust oyi oxirlarida AQSh harbiy kuchlarining Afg'oniston hududini rasman tark etishi natijasida Markaziy Osiyo davlatlari Afg'onistondagi vaziyatga nisbatan o'z yondashuvlarini qaytadan ko'rib chiqishiga to'g'ri keldi. Bu borada Markaziy Osiyo davlatlari oldida o'ziga xos dilemma vujudga kelib, "Tolibon 2.0" hukumatining o'rnatilishi, bir tomondan, imkoniyatlar manbayi sifatida, boshqa tomondan, milliy xavfsizlikka tahdid sifatida qaray boshlandi. Ana shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo davlatlarining "Tolibon 2.0"ga nisbatan yondashuvlari va aloqalarini turli darajasidan kelib chiqib 3 ta qismga ajratish mumkin. Bular "Tolibon 2.0" hukumati bilan izchil, faol va yuqori darajada muloqot o'rnatgan davlatlar (O'zbekiston va Turkmaniston), o'rta darajadagi muloqotni yo'lga qo'ygan davlatlar (Qozog'iston va Qirg'iziston) hamda "Tolibon" bilan deyarli muloqotga kirishmagan va Afg'onistondagi joriy holatni xavfsizlikka tahdid sifatida baholayotgan Tojikiston tomoni.

2021-yil avgust oyi oxiridan e'tiboran AQSh harbiy kuchlarining Afg'oniston hududini rasman tark etishi natijasida Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimini "qayta qurish"ning yangi davri boshlandi. Garchi XX asrning 90-yillaridagi kabi Markaziy Osiyo davlatlari uchun o'ta jiddiy tahlikali vaziyat yuzaga kelmagan bo'lsa-da, "Tolibon 2.0" hukumatining diniy boshqaruv uslubi, qabul qilayotgan qarorlari, uning ba'zi tuzilmalari va xalqaro terrorchi guruhlar o'rtasidagi muntazam aloqalar davom etayotganligi hamda keltirayotgan bayonotlari mintaqaviy xavfsizlikka yaratishi mumkin bo'lgan ehtimoliy tahlikalarni e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi. Nazarimizda, bunday ehtimoliy tahlikalar o'zida ham an'naviy, ham noodatiy xavflarning birikmasini aks ettiradi.

Pantolibonizm va terrorizm. Afg'onistonda "Tolibon" tomonidan asos solingan o'ziga xos boshqaruv modeli nafaqat Markaziy Osiyo davlatlarining dunyoviy boshqaruv shakli uchun, balki mintaqa davlatlarining mo'tadil islom qadriyatlariga tayangan musulmon jamiyatlari uchun ham tamomila begonadir. Afg'oniston davlat va jamiyat hayotida dinning o'rni, roli va hattoki hal qiluvchi ahamiyatiga shak-shubha yo'q. Ammo, u o'ta radikal mafkura va ta'limotlar bilan to'ldirilsa, uning siyosiy lashuvi jarayonlari kuzatilsa, bu davlat va jamiyat barqarorligiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Tarixga nazar solsak, Afg'onistonning o'zida diniy hokimiyat u qadar ko'p o'rnatilmagani va uzoq vaqt davomida

hukmronlik qilmaganiga guvoh bo‘lamiz. Bunga bo‘lgan harbiy-siyosiy urinishlar esa tashqi kuchlarning uzoq muddatli strategik manfaatlari va ular belgilagan ta‘limotlar asosida amalga oshirilgan. Taniqli afg‘on olimi Ne‘matulloh Nujumiyning keltirgan xulosasiga e‘tibor qaratish fikrlarimizni ma‘lum ma‘noda tasdiqlashga xizmat qiladi: “Davlat va dinning bo‘linishi Afg‘oniston milliy siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan. O‘tmish davomida Afg‘oniston hech qachon diniy yetakchilar tomonidan boshqarilmagan. Davlat yetakchilari doimo jamoat ishlariga rahbarlik qilishgan va diniy muassasalar mustaqil ravishda yoki davlat tasarrufida boshqarilgan”²⁵. Qozog‘istonning Osiyo tadqiqotlari instituti eksperti Nuriddin Sultonmurodov haqli ravishda yozganidek, 2021-yil avgustdan buyon Afg‘onistonda davlat boshqaruvi dinning davlat va jamiyat qurilishidagi roli sezilarli darajada oshishi bilan bog‘liq tamomila boshqacha modelga yo‘naltirilgan. Taraqqiyot modelining modernizmga yo‘naltirilgan shaklidan farqli ravishda o‘z tabiatiga ko‘ra arxaik ko‘rinishga ega bo‘lgan bunday model sezilarli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu nafaqat Afg‘onistonning o‘ziga, balki butun mintaqaga ham tegishli. Darhaqiqat, alohida bir mamlakatda birinchi marta islomning deobandizm maktabi tarafdorlari hokimiyat tepasiga keldi. Shu bilan birga, islomning bu shakli o‘zining radikalligi bilan alohida ajralib turadi. Chunki, deobandichilar islomning jamiyatdagi tarixiy rolini qaytarishga, “...eski diniy an‘nalarni so‘zma-so‘z o‘qishga, o‘tmishni ideallashtirishga, umuman O‘rta asrlarning o‘ta qattiq diniy amallariga rioya qilishga” chaqiradi. Markaziy Osiyoning barcha jamiyatlarida islomiy tamoyillar asosida davlat qurish tarafdorlari mavjudligini hisobga olsak, “Tolibon” modeli aholining ushbu toifasi uchun tayanch nuqtasiga aylanishi mumkin²⁶.

“IShID-Xuroson” va “Al-Qoida” xalqaro terroristik tashkilotlarining Afg‘onistonda hali hamon mavjudligi Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga jiddiy tahdid hisoblanadi. BMT Xavfsizlik kengashi tahliliy guruhining hisobotiga ko‘ra, “IShID-Xuroson” tashkilotining a‘zolari 2000-3500 nafarni tashkil etadi. Tahliliy guruhga BMTga a‘zo davlatlardan birining ma‘lumot berishicha, “IShID-Xuroson” Afg‘onistonning bir qator tumanlarida hududiy nazorat o‘rnatish va Markaziy Osiyodagi qo‘shni davlatlarga kirib borishni rejalashtirgan. Boshqa bir ma‘lumotda aytilishicha, “IShID-Xuroson” rahbarlari 2024-yil 24-martda Moskvaning “Crocus City Hall” majmuasida terakt sodir etish va mintaqaning bir qator davlatlarini beqarorlashtirish uchun 2023-yilda turli manbalardan 2,5 mln AQSh dollari miqdorida moliyaviy yordam olgan²⁷. AQSh Kongressining tadqiqotlar xizmati ma‘lumotiga ko‘ra, Afg‘oniston hududida eng kamida 7 ta terroristik tashkilotlar (Al-Qoida, Hindiston subqit‘asidagi Al-Qoida, IShID-Xuroson, Haqqoniy tarmog‘i, O‘zbekiston islom harakati, Pokiston Tolibon

²⁵ Nojumi Neamatollah. The rise of the Taliban: mass mobilization, civil war, and the future of the regime. – New York, Palgrave. 2002. – P.224.

²⁶ Султанмуратов Н. К вопросу о политике Казахстана по отношению к Афганистану // Международные, глобальные и региональные процессы: Международные отношения, глобальные и региональные исследования. Журнал «Россия и мир: научный диалог», № 2(8) Июнь 2023. – С.103.

²⁷ Письмо Группы по аналитической поддержке и наблюдению за санкциями от 31 мая 2024 года на имя Председателя Комитета Совета Безопасности, учрежденного резолюцией 1988 (2011). S/2024/499. 8 July 2024. – С.17-18.

harakati, Sharqiy Turkiston islom harakati) faoliyat ko'rsatadi²⁸. 2023-yil 14-aprelda qabul qilingan Samarqand deklaratsiyada ishtirokchi tomonlar barcha terrorchilik guruhlari, xususan, "Iroq va Shom Islom Davlati" (IShID), "Al-Qoida", "Sharqiy Turkiston Islomiy Harakati" (ETIM), "Tahrik-e-Tolibon Pokiston" (TTP), "Balujiston ozodlik armiyasi" (BLA), "Jundalloh", "Jaysh al-Adl", "Jamoat Ansorulloh", "O'zbekiston islom harakati" va Afg'onistonda joylashgan boshqa terrorchilik tashkilotlari mintaqaviy va global xavfsizlikka jiddiy tahdid tug'dirishini ma'lum qilishgan²⁹.

Ta'kidlash joizki, Afg'onistonda "Tolibon 2.0" hokimiyati o'rnatilgandan so'ng unga qo'shni davlatlar bilan chegarada turli to'qnashuvlar yuz berganini ko'rish mumkin. BMTning 2021-yil avgustdan 2023-yil oktyabrgacha olgan ro'yxatiga asosan chegara hududlarida 80 ga yaqin qurolli to'qnashuvlar sodir bo'lgan. Xususan, Afg'oniston-Pokiston chegarasida 59 ta, Afg'oniston-Eron chegarasida 16 ta, Afg'oniston-Tojikiston chegarasida 3 ta va Afg'oniston-O'zbekiston chegarasida 1 ta qurolli to'qnashuv sodir bo'lgan³⁰.

Pushtunlashtirish siyosati. Aholini ko'chirish (pushtunlashtirish) siyosati Afg'oniston uchun XIX asr oxiridan boshlangani sababli yangilik emas va bu pushtun bo'lmagan hududlarga ko'pchilik pushtunlarni ko'chirishni ta'minlashga qaratilgan. Tojikistonlik olim R.Mamadshoyevning yozishicha, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxivida tojik tilida quyidagi mazmundagi qiziqarli hujjat bor: "Amir Abdurahmon Hirotdan shahri va Qandahor viloyatida 50 ming afg'on (pushtun) xonadonini Chorviloyatga ko'chirishga buyruq bergan. Hirotdan daryo bo'yiga allaqachon ko'chirilgan 12 ming xonadonga yer berilib, 12 yilga davlat xizmatidan ozod qilingan... 38 ming kishi ular uchun tayyorlab qo'yilgan Andxuy, Aqcha va Kelif tomon daryo bo'yiga qarab ketishgan"³¹. Afg'onistonda pushtun sulolalaridan bo'lgan hukmdorlar tomonidan pushtu tili va madaniyatini mamlakatdagi barcha etnik guruhlarga yoyish, unumdor, yashash uchun barcha qulayliklarga ega, strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan hududlarga pushtunlarni joylashtirish siyosati olib borildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Qochoqlar bo'yicha agentligining ma'lumotlariga ko'ra 2022-yilda 820 000 kishi ichki ko'chirilgan³². Ustiga ustak, Pokiston tomonidan aksariyat aholisi pushtunlardan iborat bo'lgan millionlab qochqinlarning deportatsiya qilinishi "toliblar" ma'muriyatining pushtunlarni istiqbolda mamlakat shimolida, ayniqsa, Qo'shtepa kanali qurilishi natijasida vujudga keladigan unumdor va serhosil

²⁸ Thomas Clayton. Terrorist Groups in Afghanistan // Congressional Research Service (CRS). April 2, 2024. <https://sgp.fas.org/crs/row/IF10604.pdf>

²⁹ Samarkand Declaration of the Fourth Meeting of Foreign Ministers of Afghanistan's Neighboring States // Ministry of Foreign Affairs of the People's Republic of China, April 14, 2023. https://www.mfa.gov.cn/eng/zy/gb/202405/t20240531_11367494.html

³⁰ Нессар О. Особенности управления в Афганистане в период 2021–2024 гг. // Международные, глобальные и региональные процессы. Международные отношения, глобальные и региональные исследования. Россия и мир: научный диалог. 2024. № 3(13). – С.82-83.

³¹ Махмадшоев Р. История этнополитического развития таджиков Хорасана (Афганистан). – Душанбе. Ирфон, 2009. – С.162.

³² Qarang: Abdurahmonov O. Afg'oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlar. – T.: Donishmand ziyosi, 2024. – B.36-37.

hududlarda yashashi uchun sharoitlar hozirlashiga turtki bo'lishi katta ehtimoldan xoli emas.

Qo'shtepa kanali va suv omili. Suv masalalariga ixtisoslashib, dunyoning ko'plab tillarida nashr etiladigan "Global Water Intelligence" jurnali ma'lumotiga ko'ra, suv bozorida bir yilda aylanadigan pul miqdori butun dunyo bo'yicha harbiy maqsadlar uchun sarflanayotgan mablag'ga yaqinlashib qolgan. Bu hali jarayonning boshlanishi. 2006-yili Buyuk Britaniya Mudofaa vazirligi davlat rahbariyatiga murojaat qilib, butun Yer shari bo'ylab ichimlik suvi tanqisligidan ro'y berishi mumkin bo'lgan urushga tayyor turishga chaqirgan edi. O'sha paytdagi Mudofaa vaziri Jon Reyding fikricha, bunday muhoraba bir vaqtning o'zida dunyoning bir necha mintaqasini qamrab oladi³³.

Markaziy Osiyodagi suv bilan bog'liq vaziyat kutilgandan ham xavotirli. Dunyoning eng katta ko'llari turkumiga kiruvchi Orolning yillar davomida qurishiga sabab bo'luvchi omillar turli-tuman bo'lsa ham, lekin fojia ko'lami allaqachon xalqaro darajaga chiqib ulgurgani sababli, muammoni keltirib chiqargan sabablardan ko'ra, Orolning qolgan qismlarini saqlab qolish favqulodda dolzarb va ahamiyatli sanaladi. Chunki, Orolning ekologik falokati oqibatlarini butun mintaqa xalqlari hayotiga birdek daxldor muammo sanaladi. Shunday sharoitda "Tolibon 2.0" hukumati tomonidan qurilayotgan Qo'shtepa kanali loyihasi Markaziy Osiyodagi suv resurslari muvozanatiga katta ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. 2022-yil mart oyidan boshlab, "Tolibon 2.0" hukumati Amudaryo o'zanida Qo'shtepa kanali loyihasini qurishni boshladi. Kanalning uzunligi 285 km, eni 100 metr, chuqurligi 8 metrni tashkil etib, u Afg'oniston shimolining taxminan 550 ming gektar yerlarini sug'orishga mo'ljallangan. "Tolibon 2.0" hukumatining rasmiylari ma'lumotlariga qaraganda kanalning qurilish ishlari 2028-yilda yakunlanishi rejalashtirilgan.

Jahon resurslari institutining tadqiqotlariga ko'ra, Turkmaniston va O'zbekiston suv bilan eng kam ta'minlangan dunyodagi 13 ta mamlakatlar qatoriga kiradi. Shu sababdan ham "Tolibon 2.0" hukumatining Qo'shtepa kanali loyihasi eng avvalo, Amudaryo quyi oqimida joylashgan O'zbekiston va Turkmaniston davlatlari uchun jiddiy suv tanqisligi muammosini keltirib chiqaradi. Bu kanalning to'liq ishga tushishi ayniqsa O'zbekiston uchun iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va ehtimolan xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi, shuningdek, Markaziy Osiyoda mintaqasidagi suvdan foydalanish tartibini o'zgartirishi mumkin. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Qo'shtepa" kanali loyihasi haqida to'xtalib, "mohiyat-e'tiboriga ko'ra, mintaqamizda suvdan foydalanish jarayonida bizning mamlakatlarimiz bilan hech qanday majburiyat asosida bog'lanmagan yangi ishtirokchi paydo bo'ldi. Afg'on tomoni kanalni qurish bo'yicha faol ish olib borayotganini yaxshi bilasiz. Uning ishga tushirilishi Markaziy Osiyodagi suvdan foydalanish tartibi va muvozanatini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin"³⁴, deb ta'kidlagan edi.

³³ Эргашев А., Жумакул Д. Сув жанги ёхуд геосиёсий курашлар. Тафаккур журнали, 2013 йил 1-сон.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sahifasi, 15.09.2023. <https://president.uz/oz/lists/view/6662>

“Tolibon 2.0” hukumatining suv omilidan foydalanib, qo‘shni davlatlarga ta’sir qilish imkoniyatlarini kengaytirib borishi qo‘shni davlatlarni ushbu hukumat bilan aloqalarini saqlab turishga, istiqbolda esa “toliblar” hukumatining legitimligini tan olishga undaydi. Bu esa Qo‘shneda kanalini iqtisodiy emas, aksincha ko‘proq siyosiy loyiha ekanligini anglatadi. 2011-yilda AQSh Senatining Tashqi aloqalar qo‘mitasi tomonidan e’lon qilingan “Suv urushlaridan qochish: suv tanqisligi va Markaziy Osiyoning Afg‘oniston va Pokistonda barqarorlik uchun ahamiyatining ortib borishi” nomli hisobotida Afg‘oniston va unga qo‘shni davlatlar o‘rtasida transchegaraviy suvlar bo‘yicha bahslar kuchayib borishi haqida ogohlantirilgan. Shuningdek, Norvegiya Xalqaro aloqalar instituti (NUPI) 2008-yilda Afg‘onistonda transchegaraviy suvlar bo‘yicha suv infratuzilmasini rivojlantirish mintaqadagi kelishmovchiliklarga sabab bo‘luvchi va xavfsizlikka ta’sir etuvchi muhim omili ekanligi haqida tahlil etib, Xitoy, Hindiston, Eron, Pokiston, Rossiya va AQSh o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat Markaziy Osiyodagi suv resurslari bo‘yicha jiddiy muammolarni keltirib chiqarishini taxmin qilishgan. NUPIning ma’lumotlariga ko‘ra, binobarin, transchegaraviy daryolarning siyosiy xususiyat kasb etishi mintaqada vaziyatni yanada murakkablashib borishiga olib keladi³⁵.

Markaziy Osiyo davlatlari oldida “Tolibon 2.0” tomondan paydo bo‘lishi ehtimollari mavjud bo‘lgan xavfsizlik tahdidlari sirasiga *chegara muammosini* ham kiritishni e’tiborga olish joiz, deb hisoblaymiz. Masalan, “Tolibon” hukumatining Energetika va suv vaziri vazifasini bajaruvchi Abdul Latif Mansur 2024-yil avgustda suv toshqini tufayli eroziyaga uchragan Afg‘oniston, Tojikiston, O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi chegaralarni belgilash bo‘yicha yangi strategiya haqida ma’lum qildi³⁶. Ma’lumki, Markaziy Osiyo va Afg‘oniston o‘rtasidagi chegaralarni aniqlash hamda belgilash tarixda Rossiya va Angliyaning o‘zaro kelishuvlari asosida tuzib chiqilgan. Boshqacha aytganda, Afg‘oniston shimolidagi chegaralarning hozirgi maqomi mustaqil Markaziy Osiyo davlatlari tashkil topgandan so‘ng yuqori darajada muhokama etilib, uning joylashuv nuqtalari bo‘yicha tugal va yangi huquqiy asos yaratilmagan.

“*Tolibon*” harbiy salohiyatining ortishi. AQSh Afg‘oniston hududidan chiqib ketgandan keyin “Tolibon” qo‘l ostida qolgan harbiy texnika va qurol-aslahalar Markaziy Osiyo davlatlari e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan yana bir xavfsizlikka oid tahlikalardan biri sanaladi. AQSh Davlat departamentining 2022-yildagi hisobotiga ko‘ra, 78 ta samolyot, 40 000 ta harbiy mashina va 300 000 dan ortiq qurollar “toliblar” ixtiyorida qolgan³⁷. “Tolibon 2.0” Mudofaa vazirligi tomonidan o‘tkazilayotgan harbiy paradlarga e’tibor berilsa, ular zamonaviy harbiy texnika va qurollar bilan ta’minlanganiga guvoh bo‘lish mumkin. “Islom amirligi” bugungi

³⁵ Mohsen Nagheeb, Mehdi Piri D., Michael Faure. The Legitimacy of Dam Development in International Watercourses: A Case Study of the Harirud River Basin // *Transnational Environmental Law*, 8:2 (2019), Cambridge University Press. – P.255.

³⁶ Qadiry Liluma. Ministry of Energy and Water Reviews Achievements of the Past Year // *TOLONews*, 03 August 2024. <https://tolonews.com/node/190066>

³⁷ Tyab Imtiaz. Taliban holding on to \$7 billion of U.S. military equipment left behind after withdrawal // *CBC News*, February 4, 2025. https://www.cbcnews.com/amp/news/us-military-weapons-left-in-afghanistan-taliban/#amp_

kunga kelib quruqlikdagi harbiy kuchlarini 8 ta jangovar korpusga ajratgan. “Tolibon” armiyasining shtab boshlig‘i Fasihuddin Fitrat Shvetsariyaning Global aloqalar institutiga (SIGA) bergan intervyusida “toliblar”ning “islomiy armiyasi” soni 150 000 kishini tashkil etishi, uni 200 000 nafargacha yetkazish rejalashtirilgani va bu askarlar “jihodiy mafkura”dan saboq olishlarini ma’lum qilgan³⁸. Bundan tashqari, 2022-yilning boshlarida “Tolibon” hukumati yangi armiyasi saflarida “xudkushlar batalyoni” tuzilganini e’lon qilgan edi³⁹. “Tolibon” harbiy havo kuchlari bosh qo‘mondoni Mavlaviy Amoniddin “Mansur”ning so‘zlariga ko‘ra, mamlakatdagi 289 ta harbiy samolyotdan 50 tasi parvoz qilish uchun tayyorlangan⁴⁰. “Tolibon” tomonidan o‘tkazilayotgan harbiy paradlarda AN-32, C-208, Blackhawk, Mi-17, MD-539 va Mi-35 kabi jangovar samolyot va vertolyotlarning namoyish qilinishi “Tolibon” armiyasining salohiyati kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo va Afg‘oniston atrofidagi xavfsizlik xalqasida strategik ahamiyatga ega davlat hisoblanadi. Mintaqaning xavfsizligi, barqarorligi va izchil taraqqiyoti O‘zbekistonning ishtirokisiz va u tomonidan qabul qilinadigan tashqi siyosiy qarorlarni inobatga olmasdan turib, muvaffaqiyatli amalga oshmaydi. Hech kimga sir emaski, hozirgi dunyo tartibotida kechayotgan global geosiyosiy raqobat sharoitida xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan yondashuvlar o‘zining kutilgan samarasini bermayotir. Markaziy Osiyo mintaqasining xalqaro xavfsizlik tizimida alohida ajralib turuvchi ahil qo‘shnichilik, do‘stlik, birodarlik va o‘zaro mustahkam ishonch muhitiga asoslangan bugungi va ertangi qiyofasini Afg‘oniston o‘lkasining xavfsizligisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. “O‘zbekiston-2030” strategiyasiga ko‘ra, O‘zbekiston “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirishi, shu jumladan, mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish ustuvor masalalar qatoridan o‘rin olgan⁴¹. Afg‘oniston Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligining o‘ta muhim tarkibiy qismi sifatida O‘zbekiston tashqi siyosatining doimiy e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Ta’kidlash joizki, Afg‘onistonda vujudga kelgan kelgan yangi voqelik O‘zbekiston oldida “Tolibon” omili bilan bog‘liq **chuqur strategiya ishlab chiqish zaruriyatini** vujudga keltirmoqda.

“Tolibon 2.0” boshqaruvi bilan bog‘liq yana bir dolzarb va muhim omilni e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ma’lumki, hozirgi kunda O‘zbekistondagi aksariyat aholi qatlamlari ichida diniy toqatsizlik, radikallashuv, Islom dinining asl mohiyatini teran anglamaslik hamda jamiyat hayotidagi turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning asosiy yechimi sifatida din omiliga murojaat qilish kayfiyati

³⁸ Exclusive Interview with Taliban Chief of Army Staff on Status and Mission of Taliban Army // Swiss Institute for Global Affairs (SIGA), 29 January 2023. <https://www.globalaffairs.ch/2023/01/29/exclusive-interview-with-taliban-chief-of-army-staff-on-status-and-mission-of-taliban-army/>

³⁹ Philp Catherine. Suicide bombers given key role in new Taliban army // The Times, January 06 2022. <https://www.thetimes.com/world/asia/article/afghanistan-suicide-bombers-given-key-role-in-new-taliban-army-8rglv020t?region=global>

⁴⁰ مانور طيارات قواى هوايى کشور به مناسبت احيا و فعاليت چرخبال هاى اردوى امارت اسلامى // وزارت دفاع ملي، <https://mod.gov.af/dr . ۲۱/۱۰/۱۴۰۰>

⁴¹ “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2023 йил 11 сентябрь. ПФ-158. – Б.34-36.

ancha yuqori. “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida mavjud holat aniq va tushunarli tarzda bayon qilingan: “qonunlar bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlarga muayyan bir dinga xos qoidalarni joriy etishga bo‘lgan urinishlar, ayollar va erkaklar huquqlari tengligini shubha ostiga qo‘yish, fuqarolik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortish, ijtimoiy axloq normalarini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni inkor etish, tibbiy xizmatdan, ilm-fan va madaniyat yutuqlaridan, tovarlar va xizmatlardan foydalanishga bo‘lgan huquqlarni cheklash, ayrim davlat xizmatchilarining dunyoviy davlatchilik mohiyatini teran anglamasligi hamda jamiyat taraqqiyoti, birdamligi va barqarorligiga putur yetkazuvchi qonunga xilof g‘oyalar va qarashlar tarqalishi hollari uchramoqda. Bunday holatlar yagona O‘zbekiston xalqining, jamiyat va davlatning hamjihatligiga xatar bo‘lib, qonun hujjatlariga rioya etilmasligiga, boshqa shaxslarning huquqlari buzilishiga, fuqarolarning huquqiy tartibotga munosabati salbiy tomonga o‘zgarishiga, vatanparvarlik tuyg‘ulari yemirilishiga, oilaviy nizolarga olib kelishi mumkin. Diniy sohadagi davlat siyosati prinsiplari aniq belgilanmaganligi uning aholi o‘rtasida turlicha tushunilishiga, dunyoviy davlat asoslarining buzib talqin qilinishiga, jamiyatda ziddiyatli vaziyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin”⁴². Shu sababdan, vaqtlar o‘tib o‘zbek jamiyati orasida asta-sekinlik bilan “toliblar”ning “shariat” qonunlariga asoslangan boshqaruvini eng to‘g‘ri yo‘l, deb baholashga va shunday xulosa chiqarishga moyillik paydo bo‘lishini unutmazlik lozim. Qolaversa, ma’rifatparvarlik, diniy bag‘rikenglik va dunyoviylik kabi umume’tirof etilgan tamoyillar Afg‘onistonni idora etayotgan “toliblar”ning zehniyati uchun begona qarashlardir, deb aytsak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Strategik ahamiyat kasb etuvchi mintaqalarda kuzatilayotgan gibrid urushlar, yirik davlatlar o‘rtasida yangi dunyo tartibotini belgilash bilan bog‘liq o‘tkir geosiyosiy raqobat hamda global xavfsizlikni ta’minlashga mas’ul bo‘lgan xalqaro tashkilotlarning turli xavf-xatarlarni kutilgan darajada oldini ololmayotgani va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishda keyingi darajalarga tushib qolgani kabi keskin va oldindan aytib bo‘lmaydigan bugungi sharoitda har bir davlat o‘z xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar strategiyasini ishlab chiqishi lozim. Bu hozirgi murakkab zamonning talabidir. Shu jumladan, O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyot mezonlarini olg‘a siljituvchi kalit davlat sifatida “Tolibon 2.0” hukumati rahbarlik qilayotgan Afg‘onistondagi vaziyatning strategik mavhumlikka asoslangan xususiyatlarini maxsus e’tiborga olishi va preventiv xavfsizlik chora-tadbirlarini avvaldan ishlab chiqishi har tomonlama maqsadga muvofiq.

XULOSA

⁴² “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2025-yil 25-fevral, O‘RQ-1037-son. <https://lex.uz/docs/-7404923>

Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik transformatsiyasiga “Tolibon” omilining ta’sirini tadqiq etish asosida quyidagicha xulosalarga kelindi:

birinchidan, “Tolibon” harakati ba’zan yopiq, ba’zan oshkora xususiyat kasb etgan murakkab ichki va tashqi omillarning kombinatsiyasi natijasida vujudga keldi. Mazkur harakat ichki omillar nuqtayi nazaridan nafaqat deobandiylilik va vahobbiylilik ta’limotlarini o’zlashtirgan islomizm qarashlariga ega diniy harakat sifatida, balki o’zini pushtunlarni birlashtiruvchi etnik harakat sifatida ham namoyon qildi. Bunday o’ziga xoslikni etno-diniy sinkretizm fenomeni bilan ifodalash “Tolibon” harakati paydo bo’lishining ichki sabablarini aniqlashga qaratilgan yakdil ilmiy xulosa chiqarishga xizmat qiladi. Biroq, har ikkala omillar ham afg‘on jamiyatining an’anaviy qadriyatlarga asoslangan tamoyillariga zid kelishi vaqt o’tishi bilan o’z tasdig‘ini topdi. Zeroki, “Tolibon” harakati bilan bog‘liq har ikkala omil afg‘on xalqiga ichkaridan emas, chetdan tiqishtirilgan edi;

ikkinchidan, “Tolibon” harakatining paydo bo’lishiga keng xalq harakatining natijasi deb baho beradigan fikrlarga qo’shilish juda mushkul. Uning tashkil topishi Sovet-afg‘on urushi paytidagi geosiyosiy manfaatlar to’qnashuvining mahsuli hisoblanadi. Xususan, o’sha vaqtda afg‘on zaminida shakllangan keskin geosiyosiy holat AQSh, Pokiston va Saudiya Arabistoni singari davlatlar oldida “Tolibon” loyihasini ishlab chiqishdek muhim va strategik manfaatlar mushtarakligini vujudga keltirdi. Shundan kelib chiqqan holda, “Tolibon” harakatining kelib chiqish, shakllanish va rivojlanish jarayonlarini 4 ta bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich Sovet-afg‘on urushi yillari, ikkinchi bosqich “Tolibon”ning 1996-2001 yillardagi birinchi hokimiyati, 2001-yildan 2021-yilgacha bo’lgan davr uchinchi bosqichni va ularning 2021-yildan hozirgi vaqtgacha bo’lgan ikkinchi hokimiyati davri to’rtinchi bosqichni tashkil etadi;

uchinchidan, Tolibonizm nazariyasi islomizmning “toliboncha” ko‘rinishi yoki modelidir. Uni islomizmning uzoq yillar davomida shakllangan, tashqi radikal ta’limotlar va aqidalar kuchli ta’sir ko‘rsatgan hamda ijtimoiy jihatdan afg‘on jamiyatiga moslashtirish uchun yo‘naltirilgan talqini, deb ta’riflash mumkin. Ushbu nazariyani hozirgi “Tolibon 2.0” hukumati faoliyatidan kelib chiqqan holda ikki qismga, ya’ni Neotolibonizm va Pantolibonizm nazariyalariga ajratib tadqiq qilish lozim, deb hisoblaymiz;

to’rtinchidan, Amerika Qo’shma Shtatlarining Afg‘oniston bo‘yicha strategiyasi butun Yevroosiyo geosiyosatining asosiy va muhim tarkibiy qismi sanaladi. Tadqiqotda qayd etilgan fikr-mulohazalar, ma’lumot-dalillar va ayrim hisobotlar bugungi kunda AQShning Afg‘oniston va uning atrofidagi maqsadlari “Tolibon” vositasi orqali amalga oshirilayotganidan darak beradi. Bu esa 2021-yildan keyin Amerikaning Afg‘onistondagi strategiyasi emas, aksincha taktikasi o‘zgarganini anglatadi. Xitoyning 2021-yildan keyin “Tolibon 2.0” hukumati bilan o‘rnatgan tezkor muloqotini ikkita muhim sabab bilan izohlash mumkin: Bular AQShdan keyin Afg‘onistondagi geosiyosiy bo‘shliqni iqtisodiy diplomatiya vositasi orqali to‘ldirish hamda milliy-mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash. Shu sababdan Pekinning “Tolibon 2.0” bilan bog‘liq manfaatlari “xavfsizlik evaziga investitsiya” tamoyiliga asoslangan. Xitoy Afg‘onistonning qaytadan fuqaro urushi girdobiga tushishi, ekstremizm, separatizm va terrorizm makoniga aylanishidan

manfaatdor emas. Rossiyaning “Tolibon 2.0” hukumati bilan hamkorlikka qaratilgan yondashuvini Afg‘oniston atrofidagi mintaqa aktorlarining de facto “Tolibon” hukumati bilan faol diplomatik muloqotni kuchaytirishi, Afg‘onistondagi vaziyatning Markaziy Osiyo mintaqasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi, “IShID-Xuroson” terrorchi tashkilotining mintaqaviy xavfsizlikka tahdid tug‘dirishi, shuningdek, G‘arb davlatlarining sanksiyalari sharoitida muqobil iqtisodiy loyihalarni ishlab chiqish va yangi bozorlarga chiqish zarurati bilan izohlash mumkin. Shu sababdan, “Tolibon 2.0” hukumati Rossiyaning Afg‘onistonga oid manfaatlarini qisman aks ettiradi. Biroq, Moskva bugungi “Tolibon 2.0” hukumati bilan aloqalarida “ishon, lekin tekshir” (доверяй, но проверяй) tamoyilini afzal ko‘rmoqda;

bashinchidan, “Tolibon” hokimiyati o‘rnatilishi va Amerika harbiy kuchlarining Afg‘onistondan chiqib ketishi, shuningdek, “Tolibon”ga nisbatan an‘naviy ta’sir aloqalari sababli istiqbolda mintaqaviy aktorlar orasidan Pokiston Islom Respublikasi Afg‘onistondagi asosiy ta’sir kuchiga ega davlatga aylanadi, degan dastlabki farazlar o‘z tasdig‘ini topmadi. Geosiyosiy manfaatlar nuqtayi nazaridan o‘z vaqtida Afg‘onistonga ta’sir ko‘rsatish borasida Pokistonning kuchli quroliga aylangan “toliblar” 2021-yildan keyin Pokistonning o‘ziga qarshi turadigan kuchga aylandi. Buning oqibatida “Tehrek-e Tolibon Pokiston” tashkiloti faollashib, Dyurand chizig‘i, pushtunlar, qochqinlar va suv omili kabi o‘tkir muammolarning alanga olishiga turtki bo‘ldi. Shu boisdan yaqin istiqbolda ikki tomon chegarasidagi vaziyatning barqarorlashishi dargumon. Chunki, bu ikki davlat sarhadlari istiqbolda ham yirik aktorlarning geosiyosiy manfaatlari bir-biriga to‘qnash keladigan hudud bo‘lib qoladi;

